

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROVA RA’NOXON MAMIRJONOVNA

**O‘ZBEKISTON MAKTABLARIDA TARIX TA’LIM TIZIMINING
VUJUDGA KELISHI (1918–1940-yillar)**

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of the doctor of philosophy (PhD)

Qodirova Ra’noxon Mamirjonovna

O‘zbekiston maktablarida tarix ta’lim tizimining vujudga kelishi
(1918–1940-yillar)..... 3

Кодирова Раънохон Мамиржоновна

Становление системы исторического образования в школах Узбекистана
(1918-1940 гг.)..... 25

Kodirova Ranokhon Mamirzhonovna

The formation of the history education system in Uzbekistan’s schools
(1918–1940) 49

E’lon qilingan ishlar ro‘yxati

Список опубликованных работ

List of published works 53

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI
HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI
PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 RAQAMLI ILMIY KENGASH

FARG‘ONA DAVLAT UNIVERSITETI

QODIROVA RA’NOXON MAMIRJONOVNA

O‘ZBEKISTON MAKTABLARIDA TARIX TA’LIM TIZIMINING
VUJUDGA KELISHI (1918–1940-yillar)

07.00.01 – O‘zbekiston tarixi

TARIX FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2022.2.PhD/Tar1100 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Farg'ona davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezюме)) ilmiy kengash veb-sahifasi (www.fdu.uz) va "ZiyoNet" Axborot-ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:

Arslonzoda Rahmatjon Arslonboyevich

tarix fanlari nomzodi, dotsent

Ilmiy maslahatchi:

Shamsiyeva Mahfuzaxon Xuja qizi

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Rasmiy opponentlar:

Xoshimov Soyibjon Abdurazzaqovich

tarix fanlari doktori, professor

Nuridinov Turdali Qambarovich

tarix fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Namangan davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Farg'ona davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 raqamli ilmiy kengashning 2025-yil "12" - 12 soat 11:00 da majlisida bo'lib o'tadi. (Manzil: Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, Farg'ona davlat universiteti Tarix fakulteti, 2-qavat, majlislar zali). (Tel.: (99873) 244-44-02; faks: (99873) 244-44-93, e-mail: fardu_info@mail.uz Farg'ona davlat universiteti).

Dissertatsiya bilan Farg'ona davlat universitetining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin (646 raqam bilan ro'yxatga olingan). (Manzil: 150100, Farg'ona shahri, Murabbiylar ko'chasi, 19-uy, ARM binosi). Tel.: (99873) 244-44-94).

Dissertatsiya avtoreferati 2025 yil "12" - 12 kuni tarqatildi.
(2025-yil "12" - 12 daqi 51 raqamli reyestr bayonnomasi).



[Signature]

B.A. Usmonov

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
raisi, t.f.f.d., professor

[Signature]

N.O. Allimova

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
kotibi, t.f.f.d., dotsent

[Signature]

M.G. Abdullayev

Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash
qoshidagi ilmiy seminar raisi, t.f.d.,
professor

KIRISH (falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahon miqyosida ro'y berayotgan globallashtirish jarayonlari sharoitida ta'lim tizimining davlat va jamiyat hayotidagi o'rni va roli sezilarli darajada ortdi. Ta'lim tizimida davlat va jamoat boshqaruvini uyg'unlashtirish, uning mazmuni va mohiyatiga, usuli, tashkiliy shakllariga e'tibor yanada kuchaydi. Shuningdek, ta'limning uzluksizligi va izchilligi, uning dasturlarini tanlashga bo'lgan yondashuv, rivojlanishini ta'minlash uchun shart-sharoitlar yaratish zaruriyatga aylanib bormoqda. Ayniqsa, ta'lim tizimida nazariy bilim, malaka, amaliy ko'nikmalarni shakllantirish, kadrlar salohiyatini yaxshilash yanada muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Dunyoning qator yetakchi oliy ta'lim muassasalari va ilmiy tadqiqot institutlarida ta'limning mohiyati, turlari va takomillashtirish jarayonlari, jamiyat taraqqiyotidagi ahamiyati, rivojlanish tarixi kabi masalalar chuqur o'rganilmoqda. Jumladan, Buyuk Britaniyaning London Universiteti Akademiyasi tarkibidagi ICHRE, AQShning Jorj Meyson Universiteti, Niderlandiyadagi Erasmus universitetining History Education Research (tarix ta'limi tadqiqotlari), Shvetsariyaning Pedagogika universitetlari ta'lim va maktab tarixi markazi, o'qitish metodikasi bilan bog'liq masalalarni o'rganishda yetakchilik qiladi¹. Bugungi kunda ta'lim tizimi sifati, qamrovi, bosqichlari, shakllari va ularning xususiyatlari ko'plab davlatlar siyosatida ustuvor yo'nalishlardan biri sifatida e'tirof etilishi sohani keng tadqiq etish ehtiyojini vujudga keltirmoqda. Shu boisdan, ijtimoiy sohaning asosi hisoblangan ta'lim tizimi va uning tarixiga doir ilmiy bilimlarni yanada chuqur o'rganish, davrlar, hudud, mintqa va muammolar kesimida tadqiq etish muhim o'rin tutmoqda.

Mustaqillik yillarida O'zbekistonda ta'lim tizimi, o'quv fanlari mazmuni, sifati, huquqiy asoslarini ta'minlash, kadrlar salohiyatini yaxshilash, tegishli muassasalarda barcha shart-sharoitlarni yaratish davlat siyosatining muhim yo'nalishlaridan biri sifatida qaraldi. Ayniqsa, hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida bu borada amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlar ta'lim tizimining barcha bosqichlarini zamonaviy talablar asosida tashkil etilishiga xizmat qilmoqda. Zero, Sh. Mirziyoyev ta'kidlaganidek, "Dunyoda isbot talab qilmaydigan bir haqiqat bor: har qanday mamlakat taraqqiyoti sog'lom va bilimli avlodga bog'liq. Shu bois yangi O'zbekistonni barpo etish yo'lida sog'lom, bilimli, teran fikrli, vatanparvar yoshlarni tarbiyalash uchun barcha sharoitlarni yaratishimiz shart va zarur"². Shuning uchun ham jamiyat va davlat hayotida ta'lim tizimidagi o'zgarishlar va ularning mohiyati masalasining o'rganilishi, tarixiy ildizlarini tadqiq etilishi dolzarblik kasb etadi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 29-oktabrdagi PF-6097-son "Ilm-fanni 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son "2022–2026-yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi, 2022-yil 11-maydagi PF-134-son "2022-2026-yillarda maktab ta'limini rivojlantirish bo'yicha milliy

¹ www.ucl.ac.uk; www.gmu.edu; www.eur.n

² <https://president.uz/oz/lists/view> (2025-yil 15-may)

dasturni tasdiqlash to'g'risida"gi Farmonlari hamda 2022-yil 11-maydagi PQ-482-son "Xalq ta'limini rivojlantirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi, 2023-yil 20-apreldagi PQ-128-son "Ta'limni rivojlantirish respublika ilmiy-metodik markazi tashkil etish to'g'risida"gi qarorlari sohaga oid boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Tadqiqot respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining I. "Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatni ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy innovatsion g'oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo'llari" nomli ustuvor yo'nalishiga muvofiq bajarilgan.

Muammoning o'rganilganlik darajasi. Tadqiqot mavzusi doirasida ko'rib chiqilgan adabiyotlarni davriy, geografik va mafkuraviy tamoyillarga ko'ra uch guruhga bo'lish mumkin. Xususan, birinchi guruhni sovet hokimiyati davrida yaratilgan adabiyotlar, ikkinchi guruhni mustaqillik yillarida O'zbekistonda olib borilgan ilmiy tadqiqotlar hamda uchinchi guruhni xorijlik mualliflarning ishlari tashkil etadi.

Mavzuning tarixshunosligi dissertatsiya I bobining birinchi paragrafidan batafsil tahlil etilgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog'liqligi. Dissertatsiya Farg'ona davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq "O'zbekiston tarixining dolzarb muammolari" mavzusi doirasida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi 1918-yildan 1940-yilgacha bo'lgan davrda O'zbekiston maktablarida tarix fani o'qitilishining yo'lga qo'yilishi, tarixchi mutaxassis pedagog kadrlar tayyorlash, ayni davrda o'quv fani darsliklari yaratilish tarixini yoritishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

– 1918–1940-yillarda Turkiston ASSR va O'zbekiston SSRda tarix fani o'qitilishiga bag'ishlangan mavjud adabiyotlarni ilmiy tahlil etish hamda mavzu doirasida hal qilinadigan muammolarni aniqlash;

– mavzuga doir manbalarni kompleks tarzda tahlil etish, ularning tanlangan muammoni o'rganishdagi ahamiyatini ochib berish;

– Turkistonda sovet tuzumiga qadar faoliyat yuritgan ta'lim muassasalarida tarix fanining qay darajada o'qitilganligini yoritish;

– sovet namunasida tashkil etilgan maktablarda tarix fani o'qitilishining yo'lga qo'yilishi va rivojlanib borish tendensiyalarini ko'rsatib berish;

– O'zbekiston SSR ta'lim muassasalaridagi tarix va jamiyatshunoslik fanlarining o'quv rejalari o'rganish va ularning mazmunini tahlil qilish;

– maktablarda tarix fani o'qitilishida sovet tartibini mustahkamlashga qaratilgan darsliklar yaratish masalasini ochib berish;

– tadqiqot natijalari asosida yakuniy xulosalar chiqarish hamda Turkiston ASSR va O'zbekiston SSR maktablarida tarix ta'lim tizimining vujudga kelishi masalasi bo'yicha ilmiy-amaliy ahamiyatga molik taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning obyekti sifatida 1918–1940-yillarda O‘zbekiston SSR maktablarida tarix fanining o‘qitilishi belgilandi.

Tadqiqotning predmetini Turkiston ASSR va O‘zbekiston SSR maktablarida tarix fanini o‘qitish tizimi, tarix va jamiyatshunoslik fanlarining o‘quv rejalari, ushbu fanlar bo‘yicha kadrlar tayyorlash masalalari tashkil etadi.

Tadqiqotning usullari. Dissertatsiyada tarixiylik va obyektivlik tamoyillariga asoslangan holda muammoli-xronologik, miqdoriy, qiyosiy tahlil, og‘zaki tarix kabi ilmiy tadqiqot usullaridan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

1918–1940-yillarda O‘zbekiston maktablarida tarixni o‘qitish uch bosqichda amalga oshirilgani aniqlanib, birinchi bosqichda (1918–1924-yillar) tarix fanini alohida, gohi fanlar majmuida, ikkinchi bosqichda (1924–1931-yillar) tarix fanini jamiyatshunoslik fanlari tarkibida, uchinchi bosqichda (1932–1940-yillar) uni mustaqil fan sifatida o‘qitish yo‘lga qo‘yilganligi ilmiy jihatdan dalillangan;

TASSR Maorif xalq komissarligining 1918-yil 12-sentyabrdagi qarori asosida sovet maktablarida yetti yillik va o‘rta ta‘lim tizimida “Umumiy tarix” bilan bir qatorda “Rossiya tarixi”ni o‘qitish majburiy etib belgilangani, uning oqibatida xalqlarning milliy tarixiga oid jarayonlar o‘quv dasturlariga kiritilmay qolib ketganligi mavjud manbalar asosida aniqlangan;

maktablarda tarix fanini o‘qitishda “laboratoriya usuli”, “tadqiqot usuli” va “mehnat usuli” kabi mustaqil ta‘lim metodlaridan foydalanilganligi, biroq ularni qo‘llashda o‘quvchilarning yosh va individual xususiyatlari inobatga olinmaganligi oqibatida o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari pasayganligi isbotlangan;

tarix fanini maktab ta‘limida ikki alohida yo‘nalishda “Vatan tarixi” va “Jahon tarixi” sifatida o‘qitish ilk bor VKP(b) MK va SSSR XKS tomonidan 1934-yil 15-mayda qabul qilingan “SSSR maktablarida fuqarolik tarixini o‘qitish to‘g‘risida”gi qarori asosida yo‘lga qo‘yilgani ilmiy jihatdan asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari.

Turkiston ASSR va O‘zbekiston SSRda sovet ta‘lim tizimining qaror topishi va jamiyatshunoslik va tarix fanlarining o‘qitilishi borasida amalga oshirilgan keng qamrovli siyosiy-mafkuraviy tadbirlar, bu borada bolsheviklar tomonidan yo‘l qo‘yilgan qo‘pol xatolar, kompleks dasturlarni ishlab chiqilishi ortidan tarix fanini o‘qitish sifatining pasayishi kabi holatlarni o‘rganish va tahlil qilish natijasida bir qator taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

O‘zbekiston SSRda yangi ko‘rinishdagi sovet maktablarida tarix fanining o‘qitilishi va tarixchi pedagoglar tayyorlash jarayonlaridagi muammo va kamchiliklarni arxiv hujjatlari, ilmiy-tarixiy adabiyotlar orqali tahlil etish asosida XX asrning 20–40-yillarida O‘zbekistondagi tarix ta‘lim tizimining ahvolini yorituvchi ko‘plab yangi ma‘lumotlar ilmiy iste‘molga kiritilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi dissertatsiyada tarix fanida tan olingan nazariy yondashuv va usullarning qo‘llanilganligi, O‘zbekiston Respublikasi Milliy arxivi, Andijon, Buxoro, Farg‘ona, Samarqand viloyat davlat arxivlari, O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Farg‘ona viloyat bo‘limi fondlarida saqlanayotgan hujjatlarga asoslangani, dissertatsiya natijalarining amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tuzilmalar tomonidan tasdiqlangani bilan

belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Dissertatsiyaning ilmiy ahamiyati unda keltirilgan ko'plab yangi ma'lumotlar Turkiston ASSR va O'zbekiston SSR xalq ta'limi tizimida tarix o'qitilishidagi sovetlar tomonidan amalga oshirilgan o'zgarishlarni har tomonlama tahliliy o'rganishga xizmat qilishi bilan belgilanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati ulardan O'zbekistonda sovet hokimiyati yillari tarixini tizimli o'rganishda, o'qitishda maktab, litsey, oliy o'quv yurtlari o'qituvchi va talabalari uchun yangi avlod o'quv adabiyotlarini yaratishda foydalanish mumkinligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. 1918–1940-yillarda O'zbekiston maktablarida tarix ta'lim tizimining vujudga kelishini tadqiq etish bo'yicha qo'lga kiritilgan natijalar, ilmiy xulosa va takliflar asosida:

1918–1940-yillarda O'zbekiston maktablarida tarixni o'qitish uch bosqichda amalga oshirilgani aniqlanib, birinchi bosqichda (1918–1924-yillar) tarix fanini alohida, gohi fanlar majmuida, ikkinchi bosqichda (1924–1931-yillar) tarix predmetini jamiyatshunoslik fanlari tarkibida, uchinchi bosqichda (1932–1940-yillar) uni mustaqil fan sifatida o'qitish yo'lga qo'yilganligiga oid ilmiy xulosalardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston 24” teleradiokanalining ayrim ko'rsatuvlari ssenariysini shakllantirishda foydalanildi (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston 24” teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 30-maydagi 05-09-785-son ma'lumotnomasi). Natijada, taqdim qilingan materiallar ko'rsatuvlarning O'zbekistonda ta'lim tizimining vujudga kelishiga oid ma'lumotlar va ilmiy dalillarga boy bo'lishi ta'minlangan va teletomoshabinlarning Vatan tarixiga oid bilim va tasavvurlarini yanada boyitishiga xizmat qilgan;

TASSR Maorif xalq komissarligining 1918-yil 12-sentyabrdagi qarori asosida sovet maktablarida yetti yillik va o'rta ta'lim tizimida “Umumiy tarix” bilan bir qatorda “Rossiya tarixi”ni o'qitish majburiy etib belgilangani, buning oqibatida xalqlarning milliy tarixiga oid jarayonlar o'quv dasturlariga kiritilmay qolib ketganligiga doir ma'lumotlardan O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston 24” teleradiokanalining ayrim ko'rsatuvlari ssenariysini shakllantirishda foydalanildi (O'zbekiston Milliy teleradiokompaniyasi “O'zbekiston 24” teleradiokanali davlat muassasasining 2025-yil 30-maydagi 05-09-785-son ma'lumotnomasi). Natijada, taqdim qilingan ma'lumotlar ko'rsatuvlarni mazmunan boyitilishiga, teletomoshabinlarning Vatan tarixiga oid bilimlarini, hamda vatanparvarlik his-tuyg'ularini yanada ortishiga xizmat qilgan;

maktablarda tarix fanini o'qitishda “laboratoriya usuli”, “tadqiqot usuli” va “mehnat usuli” kabi mustaqil ta'lim metodlaridan foydalanilganligi, biroq ularni qo'llashda o'quvchilarning yosh va individual xususiyatlari inobatga olinmaganligi oqibatida o'zlashtirish ko'rsatkichlari pasayganligiga doir ilmiy xulosalardan Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi “Tarix” bo'limiga taqdim etilishi orqali muzey fondi yanada boyitildi (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 3-iyundagi 04-05/2218-son ma'lumotnomasi). Natijada, taqdim etilgan ma'lumotlar, muzeyiga tashrif buyuruvchilarning O'zbekiston tarixiga doir bilim va tasavvurlarini yanada boyitilishiga xizmat qilgan;

tarix fanini maktab ta'limida ikki alohida yo'nalishda "Vatan tarixi" va "Jahon tarixi" sifatida o'qitish ilk bor VKP(b) MK va SSSR XKS tomonidan 1934-yil 15-mayda qabul qilingan "SSSR maktablarida fuqarolik tarixini o'qitish to'g'risida"gi qarori asosida yo'lga qo'yilgani bo'yicha ma'lumotlar Farg'ona viloyati tarixi va madaniyati davlat muzeyi ekspozitsiyasini shakllantirishda foydalanilgan (O'zbekiston Respublikasi Madaniy meros agentligining 2025-yil 3-iyundagi 04-05/2218-son ma'lumotnomasi). Natijada, ushbu materiallar muzeyning "Tarix bo'limi" fondini boyitilishiga, O'zbekiston maorifi tarixiga oid ekspozitsiyalar manbalarini ilmiylik va ishonchlilik jihatdan takomillashuviga xizmat qilgan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Tadqiqot natijalari 7 ta ilmiy-nazariy konferensiya va seminarlarda, jumladan, 2 ta xalqaro hamda 2 ta respublika ilmiy-nazariy konferensiyalarida muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 16 ta ilmiy ish nashr etilgan. Ulardan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining doktorlik dissertatsiyalari asosiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 15 ta maqola, jumladan 7 tasi xorijiy jurnallarda e'lon qilingan.

Dissertatsiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya kirish, uch bob, xulosa, foydalanilgan manbalar va adabiyotlar ro'yxati hamda ilovadan iborat. Dissertatsiyaning tadqiqot qismi 149 sahifani tashkil qiladi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI

Kirish qismida tanlangan mavzuning dolzarbligi asoslanib, maqsad va vazifalari, obyekti va predmeti belgilab olingan. Tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan. Olingan natijalarning ishonchliligi asoslangan holda ularning nazariy va amaliy ahamiyati ochib berilgan. Tadqiqot natijalarining amaliyotga joriy qilinishi, ishning aprobatsiyasi, e'lon qilingan ishlar va dissertatsiyaning tuzilishi, hajmi bo'yicha ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**Muammoning tarixshunosligi va manbashunosligi**" deb nomlangan birinchi bobida, muammoning tarixshunosligi o'rganilib, tadqiqotni tayyorlashga asos bo'lgan manbalar tahlil etilgan.

1918–1940-yillarda Turkiston ASSR va O'zbekiston SSRda xalq maorifi tizimi sovet mafkurasiga mos holda shakllantirilib, yangi tipdagi sovet maktablarini tashkil etish hamda ta'lim-tarbiya jarayonini markazlashgan tartibda yo'lga qo'yish davlat siyosatining ustuvor yo'nalishlaridan biri bo'ldi. Bu jarayonda maktablarning pedagogik kadrlar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy adabiyotlar bilan ta'minlanishi masalalari ham sovet hokimiyati davrida tuzumga mos ravishda tadqiq etilgan.

Turkiston ASSRdagi milliy maorif tizimi, sovet maktablari haqida nisbatan aniq ma'lumotlarni N.P.Arxangelskiy, P.I.Serbov va A.D.Nikiforovlarning³ asarida uchratish mumkin. Mualliflar inqilobdan keyingi dastlabki yillarda sho'rolar Turkistondagi mavjud shart-sharoitni, xodimlar masalasi va moddiy holatni hisobga

³ Архангельский Н.П. О преподавании истории в Средне-Азиатской школе. – Ташкент, 1927. – 121 с.; Народное просвещение в Узбекистане / П.И.Сербов, А.Д.Никифоров; Академический центр, Научно-педагогическая комиссия. – Самарканд; Ташкент: Узбекское Гос. Изд-во, 1927. – 271 с.

olmagan holda sanoqsiz maktablar ochilishi natijasida maorif sohasi juda ayanchli holatga kelib qolganligi haqidagi nisbatan tanqidiy fikrlarini qayd etganlar.

XX asrning 30-yillaridan boshlab mamlakatdagi mafkuraviy vaziyat keskin o'zgarib, tarix fani ham tobora siyosiylasha boshladi. Ijtimoiy jarayonlarga baho berishda sinfiy, partiyaviy yondashuv uzil-kesil qaror topdi. Tarixchilar tomonidan sovet davlatining faoliyati, shu jumladan maorif sohasidagi siyosati faqat pozitiv baholanadigan bo'ldi. Bu davrda madaniyat va maorif tarixiga bag'ishlangan nashrlar⁴ asosan umumlashtiruvchi xarakterga ega bo'lib, ularda ta'limning holatiga oid faqat ijobiy ma'lumotlar jamlangan.

XX asrning 40–50-yillarida yozilgan tadqiqotlarda sovetcha tipdagi maktablarda ta'lim tizimi ma'lum darajada yo'lga qo'yilgach, uning sifatini oshirish uchun darsdan tashqari olib boriladigan mashg'ulotlarga⁵ e'tibor qaratilgan. Shuningdek, tarix o'qitish uslubiyotining turli qirralarini, 1917-yildan oldin va sovet hokimiyati yillarida tarix fani kesimida rus ilmiy-metodik tafakkurining rivojlanib borishi, hukumatining dastlabki yillardagi "zamonaviylik uchun kurash" va tarix o'rniga "ijtimoiyot" (jamiyatshunoslik) fanining joriy etilishi haqida so'z yuritiladi⁶.

XX asr 40–80-yillari maorif tizimi tarixiga doir yozilgan asarlar⁷ faqat pozitiv ruhda bo'lgan. Ularda eski maktab va madrasalar, rus ta'lim muassasalari, gimnaziyalar va real bilim yurtlari, jadid maktablari to'g'risida, asosan bu sohada

⁴ Жургунов Т. Строительство социализма и культурная революция в Узбекистане. – Ташкент: Госиздат, 1932. – 26 с.; Валиев А.Э. Подготовка национальных пролетарских кадров. – Ташкент: Госиздат, 1934. – 65 с.; Знатные учителя Узбекистана. Сборник статей. – Ташкент: Госиздат, 1937. – 75 с.; Штерн И. Социалистическая культура узбекского народа. – Ташкент: Госиздат, 1938. – 144 с.; 15 yil icida Ozbekistan xalq maarifi (1924–1939). – Taskent: OzSSR davlat oquv-pedagogik nashrijoti, 1939. – 188 b.

⁵ Arxangelskiy N.P. Maktabda ekskursiya va turizm. – Toshkent: O'zdavo'quvpednashr nashriyoti, 1940. – 60 b.

⁶ Андреевская Н.В., Бернадский В.Н. Етти йиллик мактабда тарих ўқитиш методикаси. – Тошкент: ЎзССР давлат-педагогика нашриёти, 1950. – 242 б.

⁷ Народное образование в Узбекистане. – Ташкент: Объединное изд. «Правда Востока» и «Кизыл Узбекистан», 1947. – 64 с.; Ўзбекистон ССРда халқ маорифи (1924–1945). А.Муродхўжаев тахрири остида. – Тошкент: Ўздавнашр, 1949. – 126 б.; Ражабов С. Ўзбекистонда совет мактаби тарихига доир. – Тошкент: ЎзССР давлат нашриёти, 1957. – 135 б.; Қодиров И. Ўзбекистон ССРда халқ маорифининг муваффақиятлари. – Тошкент: ЎзССР давлат нашриёти, 1959. – 69 б.; Музапаров Ш. К вопросу о школьном строительстве в Туркестанской АССР (1918–1920 гг.) / Материалы по истории Узбекистана. – Ташкент: изд-во АН УзССР, 1963. – С. 89–99.; Очерки истории Коммунистической партии Узбекистана / Ред. коллегия: М.Г.Вахабов и др. – Ташкент: Узбекистан, 1964. – 568 с.; Иноятов Н.Ш. Борьба Коммунистической партии за подготовку и воспитание учительских кадров в Узбекистане (1921–1925 гг.). – Ташкент: Наука, 1965. – 134 с.; Ўзбекистон ССР тарихи. Тўрт том. Учинчи том. Улуғ Октябрь Социалистик революциясининг ғалабаси ва Ўзбекистонда социализм куриш (1917–1937 йиллар). Бош муҳаррир И.М. Мўминов. – Тошкент: Фан, 1971. – 714 б.; Қодиров И. Қ. Ўзбекистон ССРда 30 йил ичида халқ маорифи (1924–1954). – Тошкент: ЎзССР давлат ўқув-педагогика нашриёти, 1954. – 136 б.; Қодиров Э.Қ. Ўзбекистонда халқ маорифининг 40 йил ичида эришган ютуқлари. Тошкент: ЎзССР ўқув-педогогика нашриёти, 1957. – 144 б.; Қодиров Э. Қ. Ўзбекистон ССРда халқ маорифининг муваффақиятлари. – Тошкент: ЎзССР давлат нашриёти, 1959. – 69 б.; Қодиров Э.Қ. Совет Ўзбекистони халқ маорифи. – Тошкент: Ўзбекистон, 1964. – 80 б.; Кадыров И.К. Очерки развития общеобразовательной школы Советского Узбекистана. – Ташкент: 1974. – 185 с.; Қодиров Э.Қ. Ўзбекистон умумтаълим мактабларининг ривожланиш тарихи (1917–1975). – Тошкент: Ўқитувчи, 1979. – 392 б.; Рахманов Н. Развитие педагогического образования в Узбекистане. – Ташкент: Фан, 1976. – 176 б.; Шарипов Ш. Народное образование в Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1977. – 78 с.; Шермухамедов С.Ш. Народное образование в Советском Узбекистане. – Ташкент: Узбекистан, 1977. – 160 с.; Саъдиев А. Мактабда тарих ўқитиш методикаси: Педагогика институтлари тарих факультети талабалари учун дарслик. Махсус муҳаррир проф. З.Р.Нуриддинов. – Тошкент: Ўқитувчи, 1978. – 210 б.; Бендриков К.Е. Очерки по истории народного образования в Туркестане (1865–1924). – Москва, 1960. – 512 с.; Бушик Л.П. Очерк развития школьного исторического образования в СССР. – Москва: Изд-во АПН РСФСР. 1961. – 540 с.; Расулов А.Н. Интернациональная помощь партийных организаций трудящихся Средневожского региона народам Туркестана (1918–1924).: Дисс. ... канд.ист.наук. – Казань, 1990. – 224 с.

erishilgan yutuqlar tarannum etilgan. Shu bilan birga “dohiyalar Lenin va Stalinning ko‘rsatmalari hamda Kommunistik partiya dono rahbarligi” ning natijalari targ‘ib va talqin qilingan. Asarlarda 1917-yildan keyingi davrlardagi xalq maorifining rivojlanishi bilan bog‘liq ko‘p fakt va raqamlar keltirilgan. Lekin o‘sha davr ta‘lim sohasida miqdoriy o‘zgarishlar doimo uning sifati bilan hamohang bo‘lmaganligiga e‘tibor qaratilmaydi.

O‘zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgach, masala yuzasidan olib borilayotgan tadqiqotlar yangicha mazmun kasb eta boshladi. Dastlabki yillarda mavzu bo‘yicha amalga oshirilgan tadqiqotlarda⁸ 1917-yildan to Ikkinchi jahon urushiga qadar muzeylar, arxivlar, oliy o‘quv yurtlari va ilmiy muassasalarning vujudga kelishi, tarix sohasida ilmiy izlanishlarning rivojlanishiga doir natijalar aks etdi. Shuningdek, yuqori malakali tarixchi va ilmiy xodimlarning, hamda Toshkent davlat universiteti misolida O‘zbekistonda tarixi sohasida oliy ma‘lumotli kadrlar tayyorlash masalalariga e‘tibor qaratilgan. XIX asr oxiri – XX asr birinchi choragida Turkistondagi maktab, madrasa va jadid maktablari haqida, umumta‘lim muassasalari sovet modelining vujudga kelishi jarayonlarining dastlabki tahlili, madaniyat va ta‘lim sohasida yuz bergan asosiy o‘zgarishlarga batafsil to‘xtab o‘tilgan.

So‘nggi yillarda himoya qilingan va bevosita masalaga daxldor davrda maorifning rivojlanishiga aloqador ishlardan O.K.Komilov, G.M.Xusainbekova, M.G‘.Ergasheva, R.R.Ahmedov va Y.B.Tursunovalarning dissertatsiyalarini ko‘rsatib o‘tish mumkin⁹. Ushbu mualliflar tomonidan maorifni rivojlantirishning muhim qirralari o‘rganilgan, ammo maktablarda tarix fanining o‘qitilishi muammosi ularning tadqiqot doirasiga kiritilmagan.

Sovet hokimiyatining dastlabki o‘n yilliklarida madaniy-ma‘naviy sohada, shu jumladan, maorif sohasida ro‘y bergan jarayonlarni tanqidiy ruhda qaytadan idrok etishda, erishilgan yutuqlar bilan bir qatorda, mavjud bo‘lgan jiddiy nuqsonlarni ochib berishda mustaqillik davrida nashr qilingan ayrim tadqiqotlar muhim ahamiyatga ega¹⁰.

⁸ Сагатов М.М. Историческая наука в Узбекистане в 20–30-годы. Дисс. ... канд. истор. наук. – Ташкент, 1993. – 201 с.; Холиқова Р.Э. Ўзбекистонда тарих фани ва таълимини ривожлантириш, мутахассислар тайёрлаш (ТошДУ тарих факултети мисолида, 1935–1994 йй.). Тар. фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 1995. – 189 б.; Шамсуддинов Р., Расулов Б. Туркистон мактаб ва мадрасалари тарихи (XIX аср охири – XX аср бошлари). – Андижон, 1995. – 105 б.; Расулов Б.М. Ўзбекистондаги мусулмон мактаб ва мадрасалари тарихидан (XIX охири – XX асрнинг 20-йиллари). Тар. фан. номз. ... дисс. – Андижон, 1996. – 173 б.; Чориев А.Х. Народное образование и подготовка педагогических кадров в Узбекистане в условиях советского тоталитаризма: противоречия между системами традиционно-национальной и советской (20–30-е годы): автореферат дисс. ... доктора ист. наук. – Ташкент, 1998. – 42 с.

⁹ Комилов О.К. XX асрнинг 20-йилларида Ўзбекистон миллий маорифидаги ўзгаришлар. Тар. фан. номз. ... дисс. – Андижон, 2009. – 171 б.; Хусайнбекова Г.М. Хоразм воҳасидаги маданият жараёнлари (1925–1941 йй.): Тарих фан. номз. ... дисс. – Тошкент, 2011. – 172 б.; Ergasheva M.G‘. XX асрнинг 20–30-йилларида О‘zbekiston xalq ta‘limi tizimida xotin-qizlarning ishtiroki. Тар. фан. bo‘yicha fals. dokt. ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2024. – 56 б.; Ahmedov R.R. O‘zbekistonda sovet hokimiyatining savodsizlikni tugatish siyosati (XX асрнинг 20–30-йиллари). Тар. фан. bo‘yicha fals. dokt. ... diss. avtoref. – Farg‘ona, 2024. – 59 б.; Tursunova Y.B. Sovet hokimiyatining Turkiston-O‘zbekiston SSR dagi ta‘lim siyosati (1918–1940-йиллар). Тар. фан. bo‘yicha fals. dokt. ... diss. – Toshkent, 2024. – 183 б.

¹⁰ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб. Ўзбекистон совет муштамлакачилиги даврида. Тузувчилар: М.Жўраев, Р.Нуруллин, С.Камолов ва бошқ. – Тошкент: Шарқ, 2000. – 688 б.; Тошпўлатов Т., Гаффоров Я. Тарих ўқитиш методикаси (Дарслик). Тошкент: Турон-Иқбол, 2010. – 327 б.; Қодиров Н.Н. Туркистон ўлкасидаги рус таълим муассасалари тарихи (1867–1917 йй.). Монография. – Тошкент, 2013. – 195 б.;

Masalaga doir xorijiy tadqiqotlarda¹¹ sovet ta'lim an'alarining o'ziga xosligi aks etgan. Shu bilan birga, Sovet Ittifoqidagi ta'lim tizimini va xodimlar tayyorlash masalalari, sovet maktablarida o'qitilgan fanlar masalasiga e'tibor qaratilgan. Shuningdek, ushbu tadqiqotlarda N.Krupskaya va A.Lunacharskiylarning Turkiston ASSR va O'zbekiston SSR maorif tizimidagi o'rni, sovet maktablarining aslida ideallashtirilganligi haqidagi tanqidiy fikrlar keltirib o'tilgan.

Qozog'iston¹², Tojikiston¹³ va Qirg'iziston¹⁴ kabi sovet respublikalarida ham mazkur muammoga yaqin bir qancha tadqiqotlar qilingan. Jumladan, XX asr 20–30-yillarida SSSR maktablarida tarix fanining o'qitilishi holatiga doir qator dissertatsiyalar, ilmiy maqola va to'plamlar¹⁵ nashr etildi. Mazkur nashrlarda urushdan oldingi va undan keyingi yillarda Rossiya va boshqa mamlakatlarda tarix fanini o'qitishning siyosiy omillari, nazariy muammolari o'rganilgan. Shuningdek, yangi ochilgan maktablar Markazning hukmron mafkura manfaatlarini to'liq himoya qilishga qaratilganligi, ularda partiya uchun sodiq xizmat qiladigan kadrlar tayyorlash g'oyasi ilgari surilganligi haqida tanqidiy mulohazalar berilgan.

1918–1940-yillarda Turkiston ASSR va O'zbekiston SSRda maorif tizimining rivojlanishi va maktablarda tarix ta'lim tizimining shakllanishi ko'p sonli xilma-xil manbalarda o'z aksini topgan. Ularni qonunchilik hujjatlari, O'zbekiston SSR rahbarlari asarlari, arxiv hujjatlari, statistik manbalar, davriy matbuot materiallari,

Ўзбекистон тарихи (1917–1991 йиллар). Китоб 1. Ўзбекистон 1917–1939 йилларда. Масъул мухаррирлар: Р.Абдуллаев, М.Рахимов, Қ.Ражабов. – Тошкент: Ўзбекистон, 2019. – 560 б.; Комилов О.К. Ўзбек миллий таълими трансформацияси тарихидан (XX асрнинг 20-йиллари). – Тошкент: Фан ва технология, 2019. – 164 б.; Акбаров Р.А. Туркистон АССР таълим тизимини ташкил этишда маҳаллий маърифатпарварларнинг ўрни. Монография. Фарғона. – 2022. – 120 б.

¹¹ Hans N., Hessen S. Educational policy in Soviet Russia. – London: P.S.King, 1930. – XXII, 236 p.; De Witt N. Education and Professional employment in the USSR. – Washington, 1961. – 300 p.; Archer M.S. Social Origins of educational Systems. – London: Sage Publications, 1970. – 815 p.; Fitzpatrick Sh. The Commissariat of enlightenment. Soviet Organization of education and the Arts under Lunacharsky. October 1917–1921. – Cambridge: Cambridge university press, 1970. – 380 p.; Pennar J., Bakalo I., Bereday G. Modernization and Diversity in Soviet education. With Special Reference to Nationality Groups. – New York, Praeger Publishers, 1971. – 395 p.; Tomiak J.J. World Education Series. The Soviet Union. – Newton Abbot: David & Charles, 1972. – 144 p.; Kreusler A.A. Contemporary education and Moral Upbringing in the Soviet Union. – University of Wisconsin-Milwaukee, 1976. – 243 p.; Gaworek N. H. Education, ideology, and politics: history in soviet primary and secondary schools // Society for history education. Vol. 11, No. 1 (Nov., 1977), pp. 55; Cultural Revolution in Russia. 1928–1931. Edit by Sh. Fitzpatrick. – Bloomington: Indiana University Press, 1978. – 309 p. va h.k.

¹² Мусин С. Из истории учебно-воспитательной работы казахской советской школы Казахской АССР /1920–1936 гг./ Советская педагогика. – 1961. – № 8. – С. 111–120; Степанова М.Н. Рост образовательного уровня населения Казахстана в период построения социализма (1917–1937 гг.) (Историко-демографическая характеристика). Дис. ... канд. истор. наук. – Алма-Ата, 1984. – 199 с.;

¹³ Латипов Б.Г. Развитие таджикской общеобразовательной школы в Ферганской долине Республики Узбекистан. Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Душанбе, 1995.; Джонназаров Х. Становление и развитие педагогического образования в Таджикистане. Автореф. дисс. канд. пед. наук. – Душанбе, 1996. – 47 с.; Обидова М. И. История становления и развития системы народного образования в Северных районах Республики Таджикистан (1917–1941): Историко-педагогический аспект. Дис. ... канд. истор. наук. – Душанбе, 2004. – 149 с.; Алимардонов М.У. История образования Таджикской советской социалистической республики). Дисс. ... канд. истор. наук. – Душанбе, 2013. – 150 с.

¹⁴ Тургунбаева А.М. Формирование системы народного образования в период культурной революции в Киргизии: 20–30-е годы XX века. Дис. ... канд. истор. наук. – Бишкек, 2004 – 194 с.;

¹⁵ Развитие исторического образования в России и зарубежных странах. – Ставрополь, 1995. – 392 с.; Ищенко В.А. Школьное историческое образование в России в конце XIX – начале XX века. – Дисс. ... канд. истор. наук. – Ставрополь, 1997. – 266 с.; Багрова Н.А. Становление школьного исторического образования в советской России (1920–1934 гг.). Дисс. ... канд. истор. наук. – Ростов, 2001. – 198 с.; Яремчук О.А. Преподавание истории в школах г. Читы в контексте реализации задач Советского государства в сфере исторической политики (конец 1930-х – начало 1940-х годов) // Научный диалог. – 2017. – № 8. – С. 325–340.

memuar adabiyotlar, maktab o'quv dasturlari, darsliklar va qo'llanmalar kabi guruhlarga bo'lish mumkin.

O'zbekiston Milliy arxivi va viloyat davlat arxivlari fondlarida ta'lim tarixi, maktablarda tarix fanining o'qitilishiga doir ko'plab hujjatli materiallar mavjud.

O'zbekiston Milliy arxivining R-17¹⁶, R-34¹⁷, R-94¹⁸, R-2748¹⁹ fondlarida tarix fani bo'yicha dastur loyihalari, o'quvchilarning bilimini baholash mezonlari ishlab chiqilgan metodik qo'llanmalari, tarix darslari dasturlari, ilmiy-metodik ko'rsatmalar tadqiq qilindi. Shuningdek, turli bosqich maktablari uchun o'quv rejalari va dasturlar, 1924–1944-yillarda O'zSSRda xalq ta'limi bo'yicha turli nizomlar va boshqa muhim ma'lumotlar tadqiqotga jalb qilindi.

Mavzuni tadqiq etish jarayonida Andijon viloyat davlat arxivining 129-fondi²⁰, Buxoro viloyat davlat arxivining 43-fond²¹, 548-fondlari²², Farg'ona viloyat davlat arxivining 8-fond²³, 83-fond²⁴, 131-fondlaridan²⁵, Samarqand viloyat davlat arxivining 9-fond²⁶, 152-fond²⁷, 572-fondlari²⁸, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Farg'ona viloyat bo'limining 1-fond²⁹, 109-fondlarining³⁰ hujjatli materiallardan foydalanildi. Mazkur fondlarda saqlanayotgan fan dasturlari, xalq ta'limini rivojlantirishning besh yillik rejalari loyihalari, maktablarda o'lkashunoslik ishlarining yo'lga qo'yilishi haqidagi hisobotlar, dars rejalari va o'qituvchilar tomonidan o'tilgan mashg'ulotlar to'g'risidagi hisobotlar, konferensiyalar bayonnomalari va boshqa hujjatlar tadqiqotning mustahkam manbaviy asosi bo'lib xizmat qildi.

Statistik ma'lumotlar ham 1918–1940-yillar xalq ta'limi ahvolini o'rganishda muhim rol o'ynaydi. Sovet hokimiyatining dastlabki yillarida statistik ma'lumotlar obyektiv tarzda to'plangan. Ammo XX asr 30-yillarining boshlaridan sohadagi erishilgan natijalarni 1917-yilgacha past boshlang'ich raqamlar bilan qiyoslab, respublikada maktablar, o'quvchilar va o'qituvchilar soni necha barobar ortganligi

¹⁶ O'zbekiston Milliy arxivi (keyingi o'rinlarda O'z MA deb yuritiladi), R-17 fond, Turkiston ASSR ishchi, dehqon va qizil askar deputatlari Sovetlari Markaziy Ijroiya Komiteti.

¹⁷ O'z MA, R-34-fond, Turkiston Avtonom Sovet Sotsialistik Respublikasi Maorif xalq komissarligi (TASSR Maorif xalq komissarligi) 1917–1924-yillar.

¹⁸ O'z MA, R-94-fond, O'zSSR Maorif xalq komissarligi. O'zbekiston SSR Maorif ministrligi.

¹⁹ O'z MA, R-2748-fond, O'zSSR Xalq komissarligi huzuridagi O'zbekiston pedagogika ilmiy-tadqiqot instituti.

²⁰ Andijon viloyat davlat arxivi (keyingi o'rinlarda – Andijon VDA), 129-fond, Tuman xalq ta'limi bo'limi (1925–1930 yy).

²¹ Buxoro viloyat davlat arxivi (keyingi o'rinlarda – Buxoro VDA), Buxoro sh. ishchi, dehqon va qizil askar deputatlari Buxoro okrug Soveti ijroiya komiteti xalq maorifi bo'limi (1927–1931-yillar).

²² Buxoro VDA. 548-fond, Buxoro sh. ishchi, dehqon va qizil askar deputatlari Buxoro okrug Soveti ijroiya komiteti xalq maorifi bo'limi (1927–1931-yillar).

²³ Farg'ona viloyat davlat arxivi (keyingi o'rinlarda – Farg'ona VDA), 8-fond. Farg'ona Mehnatkashlar Deputatlari Soveti Ijroiya Qo'mitasi

²⁴ Farg'ona VDA, 83-fond. Farg'ona viloyat xalq maorifi bo'limi (Qo'qon sh.)

²⁵ Farg'ona VDA, 131-fond. Farg'ona okrug xalq maorifi bo'limining doimiy saqlanadigan hujjatli materiallari (Qo'qon sh.)

²⁶ Samarqand viloyat davlat arxivi (keyingi o'rinlarda – Samarqand VDA), 9-fond, Samarqand viloyati xalq ta'limi bo'limi qoshidagi 1-bosqich maktab o'qituvchilari uchun rus tilidagi pedagogika kurslari

²⁷ Samarqand VDA, 152-fond, Kattaqo'rg'on uyezd-shahar Xalq Maorifi bo'limi (UgorONO) – Kattaqo'rg'on uyezi Samarqand viloyati ishchi, dehqon va qizilarmiya deputatlari Soveti Ijroiya Qo'mitasi qoshidagi bo'lim. Kattaqo'rg'on shahri

²⁸ Samarqand VDA, 572-fond, O'zbekiston SSR Xalq ta'limi komissarligining Samarqand mehnat universiteti.

²⁹ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Administratsiyasi arxivi Farg'ona viloyat bo'limi (keyingi o'rinlarda – O'zR PAA Farg'ona viloyat bo'limi). 1-fond, O'z KP (b) Farg'ona viloyat qo'mitasi. Targ'ibot va tashviqot bo'limi

³⁰ O'zR PAA Farg'ona viloyat bo'limi, 109-fond, Farg'ona okrug Qo'mitasi KP(b) O'z. Targ'ibot va tashviqot bo'limi

bayon etilgan. Shuningdek, har o'n ming aholi soniga O'zbekistonda va ilg'or xorijiy mamlakatlarda to'g'ri keladigan oliy o'quv yurtlari talabalari soni to'g'risidagi faktlar qayd etilgan³¹.

Davriy matbuot materiallari ham tadqiq etilayotgan davr tarixini o'rganishda muhim o'rin egallaydi. Gazeta va jurnallar sahifalarida ta'lim tizimining turli qirralarini ochib beruvchi ko'p xabarlar, maqolalar, ocherklar, reportajlar va boshqa materiallar joy olgan. Tadqiqotda "Ulug' Turkiston", "Maorif va o'qituvchi", "Darxon", "Исторический журнал", "Правда Востока", "Вестник Коммунистической академии", "Қизил Ўзбекистон"³² kabi gazeta va jurnallarda e'lon qilingan maqolalardan foydalanildi.

Mazkur mavzuni tadqiq etishda 1925–1940-yillarda qabul qilingan va maktablarda foydalanilgan o'quv dasturlari, darslik va qo'llanmalar ham tarixiy manba bo'lib xizmat qiladi. O'quv dasturlari turli yillarda o'zbek, rus, tojik, qozoq, uyg'ur, yahudiy tillarida hamda arab, lotin va kirill yozuvlarida tuzilib, nashr qilingan³³. Ular o'sha yillarda maktablarda o'rganilgan ijtimoiy-tarixiy fanlar mazmunini anglash, ularni o'qitish asnosida sovet davlati va kommunistik mafkuraning o'z oldiga qo'ygan maqsad va vazifalarini tushunib yetish imkoniyatini beradi.

Ta'lim tizimi tarixini o'rganishda memuar adabiyotlar ham muhim o'rin tutadi. Memuar adabiyotlarda ko'p hollarda boshqa manbalarda uchramaydigan maorifning 1917-yildan oldingi va keyingi davrdagi ahvoli xususida ma'lumotlar uchraydi³⁴.

³¹ Статистический ежегодник. Т. 1. 1917–1923 гг. – Ташкент: ТЭС, 1924. – 443 с.; Узбекистан за 15 лет. Статистический сборник. – Ташкент: Госиздат научно-технич. и социально-экономич. лит-ры, 1939. – 123 с.; Районы УзССР в цифрах. 1917–1923 гг. – Самарканд: Государственная Плановая Комиссия УзССР, 1930. – 318 с.

³² Xalqqa ma'rifat kerak // Ulug' Turkiston. – 1917. – № 2. – B.1.; Xalqning ko'zi ochilar... // Ulug' Turkiston. – 1917. – № 2. – B.1.; Bashlang'ich hamda orta maktablarda ijtimoiy – siyosiy fanlarni oqutuv // Maarif va oqutuci. – 1932. – № 8-9. – B. 43-46; Mexmon talabalarga ziёfat // Darxon. 1923. 4 avgust; Vagin A.A. Samostoyatel'naya rabota uchayichykh starshykh klassov po istorii // Исторический журнал. – 1936. – № 10 – С.112.; Kraevedeniye v prepodavanii istorii SSSR // Исторический журнал. – 1939. – № 8 С. 118; Калинин. М.И. Obrazovaniye v Uzbekistane // Правда Востока. 12 мая 1924 г.; Икрамов А. О задачах культурной революции // Правда Востока. 12 мая 1925 г.; Элчев Т. Первые из первых // Правда Востока. 7 января 1927 г.; Панкратова А.М. Историческое образование на высшую ступень // Вестник Коммунистической академии. – 1934. – № 2. – С.185; Каримбердиев Д. Педкенаш хабарлари // Қизил Ўзбекистон, 1933 йил 30 сентябрь.

³³ Рожков Н.А. Учебник истории всеобщей и русской. Вып. III-IV. – Москва: ГИЗ, 1918.; Рожков Н.А. Учебник русской истории для средних учебных заведений. – Москва: Книга, 1918; Программа единой трудовой школы. – Ташкент: Комиссариат народного образования, 1919. 1-я ступень. – 94 с.; 2-я ступень. – 72 с.; Корженевский Н. Туркестановедение. Конспективный курс сред. школы. Часть I. – Скобелев, 1919. – 48 с.; Birlashgan Mehnat maktablarining programmasi [Birinchii bosqich uchun]. – Toshkent: Turkdavnashr, 1920. – 48 b. (Arab grafikasida); .) .بیرلشمان مهنٲ مکتبلرین پرگراممسی [برنجی بوسقچ اوچون .]– تاشکند: تورکدؤنش، ۱۹۲۰. – ۴۸ ص. عرب گرافیکاسیدا); И.М. Советский строй: методическое пособие по обществоведению для трудовой школы. – 5-е изд. – Москва: Работник просвещения, 1925. – 200 с.; Gukovskiy A.I., Traxtenberg O.V. Tarix. Feodalizm davri. O'rta maktablar uchun darslik. 6-7 O'qish yili. – Toshkent: O'zdavnashr, 1933. – 263 b.; Nikolskiy N.M. Sinfdan ilgariги jamiyat, burungi sharq, antik dunyo tarixi. O'rta maktablar uchun darslik. 5-O'qish yili. – Toshkent: O'zdavnashr, 1933. – 228 b., rasm (Lotin grafikasida); Nikolskiy N.M. Tarix. Jamiyati pesh az sinfi, Sharqi qadima, jahoni antik. Kitobi darsi baroyi maktabxoyi miyona, soli ta'limiyi 5-um. – Toshkent: Nashridav O'zSSR, 1933. – 242 s., surat; 1939 nci yilnin avgust ayida oqutucilarnin kengasini otkazis toqrisida instruktsiya. – Taskent: OzMXK nin nasriyoti va basmaxanasi, 1939. – 10 b.; Oqutucilarni 1940 yil yanvar kengasmalariga metodik materiallar (ona tili, matematika, tabiyot, ximiya, tarix va konstitutsiyadan). – Taskent: Oz SSR maarif xalq komisarligi, 1940. –120 b.;Tarixdan metodik qollanma. O'rta maktablarnin 5-8 sinflari ucun. – Taskent: OzSSR davlat oquv-pedagogika nashriyoti, 1940. – 123 b.; СССР тарихи. Ўрта мактабнинг VIII синфи учун дарслик. Проф. А.М.Панкратова тахрири остида. – Тошкент: ЎзССР Ўқувпеднашр, 1941. – 305 б.

³⁴ Айний С. Эсдаликлар. – Тошкент: Ўздавнашр, 1953. –165 б.; Қори-Ниёзий Т.Н. Ҳаёт мактаби ("Эсдалик лавҳалари"). – Қўшимчалар билан қайта ишланган 3-нашри / Қориниёзий Т.Н. Танланган асарлар. Саккиз том. Саккинзинчи том. – Тошкент: Фан, 1970. – 232 б.; Ярматов К. Возвращение [Предисл. С.Герасимова; Лит.

Ushbu memuar asarlar bevosita tasvirlangan voqealarning ishtirokchilari va shohidlari tomonidan yozilganligi bois muhim manbaviy ahamiyat kasb etadi.

Memuar adabiyotlarga yaqin manbalarning yana bir guruhi – bu og‘zaki tarix materiallaridir. 2024-yil sentyabr–noyabr oylarida tadqiqot doirasida o‘z xotiralarini so‘zlab berishi mumkin bo‘lgan, XX asr 30-yillarida maktabda tahsil olgan, ayrim respondentlar bilan suhbat-intervyu o‘tkazildi. Shu bilan birga, ularning boshlang‘ich maktabda tahsil olgan yillari bilan bog‘liq xotiralari yozib oldindi³⁵.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **“Turkiston ASSR maorif tizimida tarix fanini o‘qitishning yo‘lga qo‘yilishi (1918–1924-yillar)”** deb nomlangan. Ushbu bobda Turkistonning XIX asr ikkinchi yarmidagi maktablarida tarix fanining o‘qitilishi muammolari, sovet hokimiyatining ilk yillarida Turkistonda maktablarning tashkil etilishi jarayonlari yoritilgan. Shuningdek, sovet tipidagi ta‘lim muassasalarida tarix fanining jamiyatshunoslik kompleks dasturi bilan almashtirilishi, mutaxassis kadrlar tayyorlash va bu jarayondagi muammolar tahlil etilgan. Jumladan, XIX asrda eski diniy maktablarda o‘qitilgan fanlar ro‘yxati va bu yerda dars berish uslubi haqida taniqli yozuvchi va olim Sadriddin Ayniy o‘zining **“Eski maktab”**³⁶ nomli avtobiografik qissasida yozib qoldirgan. Unda maktabda o‘qitilgan fanlar va tahsil olganligiga doir ma‘lumotlar aks etgan. Lekin maktabda tarix fani o‘qitilganligi haqida hech qanday ma‘lumot keltirmaydi. Eski maktabda tahsil olgan T.N.Qori-Niyoziy³⁷ ham o‘z esdaliklarida bu yerda tarix fani o‘qitilganligi haqida ma‘lumot bermaydi. Bundan eski maktabda islom tarixidan boshqa mavzular o‘qitilmagan, degan xulosa kelib chiqadi.

XIX asrning ikkinchi yarmida Turkistonda asosan yevropalik aholi bolalari uchun mo‘ljallangan boshlang‘ich (**“savod maktablari”**, **“cherkov-prixod maktablari”**, **“shahar maktablari”**, xalq bilim yurtlari) hamda noto‘liq o‘rta (oliy boshlang‘ich bilim yurtlari va **“progimnaziylar”**) va to‘liq o‘rta (gimnaziylar va **“real bilim yurtlari”**) maktablarining o‘quv rejalariga tarix fani kiritildi.

Garchi jadid maktablari xususiy ta‘lim muassasasi bo‘lsa-da, ular o‘ziga xos o‘quv reja va dasturlariga ega edi. Reja va dasturlarga ko‘ra, yangi usul maktablarida birinchi o‘quv yilidagi asosiy e‘tibor **“Muallimi avval”** orqali o‘quvchilar savodini chiqarishga qaratilgan. Ikkinchi o‘quv yilida o‘quvchilar tomonidan tatarcha **“Mintazam qiroat”** va **“Yani qiroat”** hamda **“Qur‘oni Karim”**, **“Xavaji diniya”** kitoblarining birinchi qismi mutolaa qilingan. Uchinchi sinfda savod chiqarish So‘fi Olloyor kitobi asosida olib borilgan. Darslarda **“Xavaji diniya”** kitobining ikkinchi qismi mutolaa qilingan. Yangi usul maktablarida **“Tarixi anbiyo”** asosida islom tarixi, **“Muxtasar jug‘rofiya”** hamda Ahmad Hodining **“Jo‘g‘rofiya”** va **“Dunya ma‘lumat”** kitoblari asosida geografiya fani o‘rgatilgan. Ilohiyot darslarida

запис В.Н.Ишимова]. – Ташкент: изд-во лит и искусства, 1987. – 224 с.; Яшин К. Ёднома [Хотиралар китоби]. – Тошкент: Ёш гвардия, 1989. – 224 б.; Акрамхўжаев О. Ҳаёт сабоқлари. – Тошкент, 1995. – 284 б.

³⁵ Farg‘ona viloyatining Farg‘ona tumani Log‘on qishlog‘ida yashovchi, 1928-yil tug‘ilgan Odinajon-momo Haydarova; 1927-yil Farg‘ona viloyatining Kirov (hozirgi Beshariq) tumanida tug‘ilgan, hozirgi kunda Farg‘ona shahrida yashovchi Ahmadali G‘ofurov; 1931-yil Qashqadaryo viloyatida tug‘ilgan, hozirgi kunda Namangan viloyati Pop tumani Iftixor MFY da yashovchi Almira Sharipovna Qurbongaliyeva.

³⁶ Айни С. Мактаби кўхна // Куллиёт. Ҷилди 5. – Душанбе: нашр. давл. Тоҷ-н, 1963. – С. 51-93.

³⁷ Қори-Ниёзий Т.Н. Ҳаёт мактаби (**“Эсдалиқ лавҳалари”**). – Қўшимчалар билан қайта ишланган 3-нашри // Қори-Ниёзий Т.Н. Танланган асарлар. Саккиз том. Саккинзинчи том. – Тошкент: Фан, 1970. –232 б.

o'quvchilar Qur'oni Karim bilan bir qatorda Toshkentda nashr etilgan "Ibodati islomiya" (muallif A.Ibodullayev) hamda Munavvar Qorining "Amamiyat", "Xavaji diniya", "Tarixi anbiyo" va "Tarixi islomiya" kabi kitoblarini o'qigan. Shuningdek, Qozon shahrida chop etilgan "Tarixi qavmi turkiy" (muallifi Xanov), "Ilmi sarfi turkiy" (muallif X.Mahmudov) kabi kitoblardan foydalanilgan.

XIX asrning oxirlarida boshlang'ich ta'limda Rossiya tarixining qisqacha kursi joriy etilib, unda knyazlar, podsholar va sarkardalarning hayotidan olingan lavhalar bilan birga, siyosat va cherkov tarixi bilan bog'liq hikoyalar ham o'z aksini topgan. 1916-yil Turkistonda rus-tuzem (1884) maktablari soni 100 taga yetgan va ularning o'quv rejasiga tarix fani kiritildi³⁸.

1917-yil may oyida "Sho'roi Islomiya" harakati tomonidan Turkistonning ilg'or taraqqiyparvar pedagoglari uchun Toshkent shahrida musulmon o'qituvchilari qurultoyi o'tkazildi. Unda maktab o'quv dasturlariga tarix fanini kiritish tashabbusi ilgari surildi. Rus-tuzem maktablarini milliy maktabga aylantirish va uning dasturiga Turkiston va Rossiya tarixini kiritish taklifi sentyabr oyida Toshkent shahar Dumasi tomonidan ma'qullandi. Ammo, Oktyabr to'ntarishidan keyin hokimiyat tepasiga kelgan bolsheviklar bu islohotni amalga oshirishga yo'l bermadi³⁹.

Ikkinchi bobning "Maktab ta'limida ijtimoiy fanlarni o'qitish sohasidagi tajribalar: tarix fanining jamiyatshunoslik kompleks dasturi bilan almashtirilishi" nomli ikkinchi paragrafida esa Turkiston ASSRda bolsheviklar tomonidan olib borilgan maorif tizimidagi siyosat, xususan tarix fanining jamiyatshunoslik kompleks dasturi bilan almashtirilishi haqida so'z yuritilgan.

1918-yildayoq maktab o'quv rejasiga "Sotsializm tarixi", "Mehnat tarixi", "San'at tarixi" kabi fanlar kiritildi. Masalan, Turkiston ASSR Maorif xalq komissarligi tomonidan 1918-yil 12-sentyabrda chiqarilgan buyrug'iga ko'ra, endi ayni o'quv yilidan boshlab yetti yillik va o'rta maktablarda majburiy davlat minimumi doirasida "Umumiy tarix" va "Rossiya tarixi"ni o'qitish zarurligi, "tarix ijtimoiy sotsiologik tiplarning rivojlanish jarayoni" sifatida o'rganilishi ta'kidlandi. Ayni vaqtda dasturda yetti yillik maktablarda "Jamiyatshunoslik" fanining ayrim elementlarini, o'rta maktablarda esa siyosiy iqtisod, "Turkiston iqtisodiyoti" va "Sotsiologiya faniga kirish"ni o'qitish tavsiya etildi⁴⁰.

1919-yil fevral oyida Maorif xalq komissarligi (MXK)ning maktab islohoti bo'limi yig'ilishida D.A.Kashintsev taklifi bilan maktablarda tarix fani o'rniga turli fanlar majmuasini o'z ichiga olgan "Jamiyatshunoslik" fani bilan almashtirish masalasi qo'yilib, unda "Madaniyat va texnika tarixi", "Mamlakatshunoslik", "Iqtisodiyot" kabi fanlar kiritildi⁴¹.

1921-yilda "Tarix" fanining "Jamiyatshunoslik" bilan almashtirilishi, bu bo'yicha kompleks dasturlarning joriy etilishi vaziyatning yanada chigallashuviga olib keldi. Oqibatda, butun sobiq Ittifoqda maktab tarix ta'lim tizimi izdan chiqdi. Bunga asosiy sabab mazkur o'quv fani bo'yicha mukammal dastur, darslik va ishchi

³⁸ Dmitrijev V.M. Ozbekiston 15 jilida maktab va oqutuci // 15 yil icida Ozbekiston xalq maorifi (1924–1939). – Taskent: OzSSR davlat oquv-pedagogik nashriyoti, 1939. – B 12.

³⁹ Ўзбекистоннинг янги тарихи. Иккинчи китоб... – Б. 133, 134.

⁴⁰ O'z MA, R-34-fond, 1-ro'yxat, 124-yig'majild, 8–9-varaqlar.

⁴¹ Шулепникова Е. И. Почему в 1920-е годы в школах не преподавали историю // Преподавание истории в школе. – 2014. – № 5.

kitoblarning yo‘qligi, o‘qituvchilar nazariy tayyorgarligining pastligi, ular orasida “marksist-pedagog”larning juda ozligi edi⁴² deb, - ko‘rsatilgan bo‘lsa-da, aslida bu tanlangan g‘oyaning notog‘riligi edi. Tarixni faqatgina sinfiy kurash va iqtisodiy omillar doirasida tushuntirishga urinish oqibatida, tarix o‘qitish zaiflashib, nafaqat uslubiyot, balki fanning mazmuni ham o‘quvchilar va o‘qituvchilarga yetarli darajada yo‘l-yo‘riq ko‘rsata olmadi. O‘zKP MQ mas’ul kotibi A.Ikromov bir necha nutqlarida maktablarda “Jamiyatshunoslik” fani amalda umuman o‘tilmayotganligi ta’kidlangan. Shuningdek, “Jamiyatshunoslik” fani bir amallab, xo‘jako‘rsinga o‘tilgani, o‘qituvchilarning saviyasi ham pastligi aytilgan edi⁴³.

1923-yildan “Tarix” fani uzil-kesil boshlang‘ich maktablarning o‘quv rejasidan olib tashlandi, uning o‘rniga to‘liq “Jamiyatshunoslik” fani o‘tildi. Shu o‘rinda I bosqich maktablarida kompleks mavzular (“shahar”, “qishloq”, “1-may bayrami” va boshqalar), yuqori sinflarda “Jamiyatshunoslik” fani o‘qitilib, uning elementlari sifatida asosan umumlashtirilgan, sotsiologik xarakterdagi ba’zi tarixiy bilimlar kiritildi⁴⁴.

“Sovet maktablarini tarixchi o‘qituvchilar bilan ta’minlash muammolari va ularning yechimi borasida amalga oshirilgan chora-tadbirlar” deb nomlangan uchinchi paragrafda bu davrdagi kadrlar tayyorlash muammosiga to‘xtab o‘tilgan. Maktablarda mehnat qilayotgan pedagog va xodimlar tarkibining yangilanishiga Maorif bo‘yicha davlat komissiyasining 1918-yil 27-fevralda qabul qilgan “Barcha pedagogik va ma’muriy-pedagogik mansablarga saylov yo‘li bilan tayinlash to‘g‘risida”gi qarori yordam berdi. Mazkur qarorda o‘qituvchilik diplomining yo‘qligi lavozimni egallash uchun to‘siq bo‘lolmaydi, deb yozib qo‘yildi. Demak, o‘qituvchilik qilishga huquq beruvchi hujjati bo‘lmagan shaxs ham maktabda ishlashi mumkin edi. Ushbu qarorga binoan o‘tkazilgan saylovlar tufayli sovet davlatiga maqbul bo‘lmagan ko‘p rahbar va o‘qituvchi kadrlar maktabdan chetlashtirildi. Ayni vaqtda maorif tizimiga diniy va mavjud mafkura qarashlardan ozod bo‘lgan, yangi yosh kadrlar jalb etildi. 1917-yil Fevral inqilobiga qadar siyosiy qarashlari uchun ishdan bo‘shatilgan o‘qituvchilar maktabga qaytdilar. Xususan, ijtimoiy-tarixiy fanlar o‘qituvchilarining tarkibi jiddiy ravishda o‘zgardi. Bu fanlardan dars berish uchun kommunistlar, komsomollar hamda bolsheviklar partiyasiga xayrixoh bo‘lgan kishilar, jumladan, fuqarolar urushi frontlarida sovet hokimiyati uchun jang qilgan shaxslar jalb qilindi.

1918–1925-yillarda Turkiston respublikasida pedagog kadrlar tayyorlashning asosiy shakli qisqa muddatli kurslar bo‘lib, 1920-yilning birinchi yarmida bu

⁴² Постановление ЦК ВКП (б) “О преподавании обществоведения в школах II ступени, фабзавуча и крестьянской молодежи” 18 января 1927 г. // Народное образование в СССР. Сборник документов. 1917–1973 гг. – Москва: Педагогика, 1974. – С. 151.

⁴³ Икрамов А. Великие задачи и большие обязанности. Из выступления на краевом совещании работников просвещения 26 мая 1926 г. / Икрамов А. Избранные сочинения в трех томах. Том I. – Ташкент: Узбекистан, 1972. – С. 226.; Он же. О задачах культурной революции. Доклад на республиканском партсовещании по народному образованию совместно с активом 11 мая 1928 г. // Икрамов А. Избранные сочинения в трех томах. Том I. – Ташкент: Узбекистан, 1972. – С. 418.

⁴⁴ Диомидов И. М. Советский строй: методическое пособие по обществоведению для трудовой школы. – 5-е изд. – Москва, 1925; Замысловская Е. К. Обществоведение. Ч. 1. – Москва, 1924. – (Учебные пособия для школ I и II ступени); Боргман А. И. Сборник упражнений по обществоведению: (методические опыты). – Ленинград, 1925. – (Б-ка обществоведения).

kurslarda 2 599 nafar, o'qituvchilarni qayta tayyorlash kurslarida 1 218 kishi o'qigan⁴⁵.

1918-yil 21-aprelda O'rta Osiyodagi dastlabki oliy ta'lim muassasi – Turkiston xalq universitetining tantanali ochilish marosimi bo'lib o'tdi. 1919-yilda uning tarix-filologiya fakultetiga 23 nafar talaba qabul qilindi. Keyingi yillarda bu ko'rsatkich keskin ortdi. 1920-yilda 216, 1921-yilda esa 220 nafar talaba qabul qilindi. Xalq ta'limida tarix o'rniga “Jamiyatshunoslik” fani joriy etilishi bilan, 1921-1922-o'quv yilidan boshlab, O'rta Osiyo davlat universitetida tarkibiga tarix fakulteti ham qo'shib yuborilgan “Ijtimoiy fanlar” fakulteti ochildi. 1922-yilda ushbu fakultetga 327, 1923-yilda esa 370 nafar talaba qabul qilindi. Lekin, “Ijtimoiy fanlar” fakulteti ham 1924-yilga kelib yopilib, 1935-yilga qadar qayta ochilmadi. Uning negizida “Mahalliy xo'jalik va huquq” fakulteti ochildi.

Dissertatsiyaning **“O'zbekiston SSRda tarix ta'lim tizimining rivojlanishi”** deb nomlangan 3-bobining birinchi paragrafi 1925–1934-yilda maktab tarix ta'lim tizimining yutuqlari va muammolariga bag'ishlangan.

1923–1932-yillarda tarix fani maktab dasturlarida umuman mavjud bo'lmagan. 1919-yil fevral oyida Maorif xalq komissarligining maktab islohoti bo'limi yig'ilishida D.A.Kashintsev taklifi bilan maktablarda tarix fani o'rniga turli fanlar majmuasini o'z ichiga olgan “Jamiyatshunoslik” fani bilan almashtirish masalasi qo'yilib, unda “Madaniyat va texnika tarixi”, “Mamlakatshunoslik”, “Iqtisodiyot” kabi fanlar kiritildi. O'sha yili Maorif xalq komissarligi “Mehnat maktabidagi o'quv-tarbiya ishlari bo'yicha materiallar”ni e'lon qilib, unda an'anaviy ilmiy tizim yangi kompleks tizim bilan almashtirildi. Kompleks dasturlarni ishlab chiqish bilan N.K.Krupskaya rahbarligidagi Davlat ilmiy kengashining ilmiy-uslubiy bo'limi shug'ullandi. Tez orada namunaviy dasturlar yaratildi. Materialni o'rganishning butun tizimi uch bo'limdan, jumladan tabiat, mehnat va jamiyat bo'yicha tuzildi. Kompleks dasturlarning asosiy tamoyili “fanlar tizimi emas, bilimlar tizimi” bo'ldi. Har bir majmua ma'lum bir vaqtga mo'ljallangan bo'lib, o'lkashunoslik materiallari va joriy voqealar bilan bog'liq edi. Bunday tadbirlar sifatida mavsumiy dala ishlarining boshlanishi, inqilobiy bayramlar va boshqalar bo'lishi mumkin edi⁴⁶.

1925-yil yanvar oyida bo'lib o'tgan Butunittifoq o'qituvchilarining birinchi syezdida Maorif xalq komissarligi rahbariyati kompleks dasturlarni shu jumladan, jamiyatshunoslik dasturini qayta ko'rib chiqish zarurligini tan olishga majbur bo'ldi⁴⁷. 1927-yilda nashr etilgan dasturlar va o'quv rejalari endi namunaviy emas, balki majburiy bo'lib qoldi. Ikkinchi bosqich maktabida “Rus tili va adabiyoti”, “Geografiya” va boshqa ba'zi fanlar o'qitilgan. Ammo ularda alohida fan sifatida tarixga o'rin yo'q edi. Shunday bo'lsa-da, birinchi, ikkinchi bosqichda ham “Jamiyatshunoslik” o'qitilib, unga tegishli mavzudagi tarixiy materiallar alohida kiritilgan.

⁴⁵ Доклад о деятельности школьного отдела и его подразделов от 15 февраля до 1 июля 1920 г. // История образования в архивных источниках. Том II... – С. 16.

⁴⁶ Шулепникова Е.И. Почему в 1920-е годы в школах не преподавали историю // Преподавание истории в школе. – 2014. – № 5.

⁴⁷ Богачёв А.В., Захарова А.В. Концепция развития народного образования в Советской России в 1920-е годы // Вестник Самарского государственного технического университета. 2015. № 2. С. 21–26.

1929–1933-yillarda olib borilgan “Kollektivlashtirish” siyosati jamiyatshunoslik dasturlarida ham aks etib, dastlabki o‘quv yillarida asosan qishloq va shahar o‘rtasidagi munosabatlar, Oktyabr to‘ntarilishi sovet hokimiyatining tashkil topishi, partiya tarixi haqida mashg‘ulotlar o‘tilgan⁴⁸.

1929-yilda A.S.Bubnov Maorif xalq komissarligi raisi etib tayinlanib, u faoliyatini maorif tizimidagi nomaqbul siyosatni to‘g‘rilashdan boshladi. 1930-yil 25-iyulda VKP (b) MQning “Umumiy majburiy boshlang‘ich ta‘lim to‘g‘risida”gi, VKP (b) Markaziy Qo‘mitasining 1931-yil 25-avgustdagi “Boshlang‘ich va o‘rta maktablar to‘g‘risida”gi qarori tarixni alohida fan sifatida o‘qitish ishida burilish nuqtasi bo‘ldi⁴⁹.

1934-yil tarix fanini o‘qitishda keng ko‘lamli o‘zgarishlar davri bo‘ldi. 15-mayda VKP (b) MQ va SSSR XKS “SSSR maktablarida fuqarolik tarixini o‘qitish to‘g‘risida” qaror qabul qildi. Unda maktabda ijtimoiy fanlarni o‘qitishga bo‘lgan avvalgi yondashuvlar keskin qoralandi. Jumladan, sovet tarix fanining asosiy kamchiligi sifatida fuqarolik tarixini jonli va qiziqarli tarzda, eng muhim voqea va faktlarni xronologik ketma-ketlikda, tarixiy shaxslarni tavsiflagan holda o‘rgatish o‘rniga ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar mavhum tarzda tushuntirilgani ko‘rsatilgan⁵⁰. Qarorga ko‘ra, endilikda o‘quvchilar tarix kursini puxta o‘zlashtirishlari uchun hal qiluvchi shart tarixiy voqealarni bayon etishda tarixiy-xronologik izchillikka rioya qilishi, ularning xotirasida muhim tarixiy hodisalar, tarixiy shaxslar va xronologik sanalarni mustahkamlash kerakligi ta‘kidlandi. Ushbu qarorning yana bir muhim jihati shunda ediki, 1934-yildan boshlab maktablarda tarix o‘qitish ikki alohida, xususan Vatan va jahon tarixi fanlariga ajratildi.

1934-yil 9-iyunda VKP (b) MKning “Boshlang‘ich va to‘liqsiz o‘rta maktabda umumiy tarix va SSSR tarixi elementar kursini joriy etish to‘g‘risida”gi qaroriga ko‘ra, O‘zbekiston SSRda boshlang‘ich va to‘liqsiz o‘rta maktablarda “Umumiy tarix” va “SSSR tarixi” elementar kursi uchun mavzular tasdiqlandi⁵¹.

1937-yilda III va IV sinflar uchun “SSSR tarixining qisqacha kursi” bilan birga VII sinfda “SSSR Konstitutsiyasi” kursi joriy etildi. 1936-1937 o‘quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab ijtimoiy fanlarni o‘qitish SSSR Konstitutsiyasi kursi bilan almashtirildi⁵².

“Maktablarda tarix ta‘lim tizimining tiklanishi va sohada kadrlar tayyorlash masalasi (1934–1940-yillar)” nomli ikkinchi paragrafda tarixchi pedagog xodimlar tayyorlash masalasida so‘z boradi. 1921-yilda RSFSRdagi barcha universitetlarda tarix fakultetlari yopilib, ularning o‘rniga ijtimoiy fanlar fakulteti ochildi. Tarix o‘qitilishi ham ushbu fakultetlar tarkibiga kiritildi. O‘rta Osiyo davlat universiteti ham bundan mustasno bo‘lmadi. Faqat 1935-yildagina bu yerda “Tarix” fakulteti

⁴⁸ Andijon VDA, 129- fond, 1-ro‘yhat, 207-yig‘majild, 2-5-varaqlar.

⁴⁹ О начальной и средней школе// Народное образование в СССР. Общеобразовательная школа. Сб. документов 1917–1973 гг. М.: Педагогика, 1974. – С. 156.

⁵⁰ Из Постановления СНК Союза ССР и ЦК ВКП (б) “О преподавании гражданской истории в школах СССР” от 15 мая 1934 г. / Народное образование в СССР. Общеобразовательная школа. Сб. документов. 1917–1973 гг. – Москва: Педагогика, 1974. – С. 166.

⁵¹ Постановление ЦК ВКП (б) «О введении в начальной и неполной средней школе элементарного курса всеобщей истории и истории СССР» 9 июня 1934 г. // Народное образование в СССР. Сборник документов. 1917–1973 гг. – Москва: Педагогика, 1974. – С. 168.

⁵² Бущик Л.П. Очерк развития школьного исторического образования в СССР... – С. 271.

qayta tiklandi⁵³. Fakultetda “Qadimgi dunyo tarixi”, “Oʻrta asrlar tarixi” va “Yangi tarix” kafedralari ochildi. 1937-yilda bu uchta kafedra yagona “Umumiy tarix” kafedrasiga birlashtirildi⁵⁴. Ayni vaqtda fakultetda “SSSR tarixi” kafedrasini tashkil etildi. Keyinchalik yana ikkita kafedra – “Oʻrta Osiyo xalqlari tarixi” (1938) va “Arxeologiya” (1939) kafedralari faoliyat koʻrsata boshladi.

Samarqand oliy pedagogika instituti 1927-yilda tashkil etilib, 1933-yilda Oʻzbekiston davlat universitetiga oʻzgartirilgan. Bu yerdagi “Tarix-iqtisod” fakulteti respublikada tarix va boshqa ijtimoiy fanlarni rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etgan. Oʻzbekiston SSRda yetti yillik va oʻrta maktablarda tarix fani alohida predmet sifatida qayta tiklangandan keyin malakali oʻqituvchi kadrlarga boʻlgan ehtiyoj tufayli Fargʻona (1930), Buxoro (1930), Qoʻqon (1931), Toshkent (1935), Nukus (1935), Andijon (1939) shaharlarida ochilgan pedagogika va oʻqituvchilar institutlarida tarix fani boʻyicha mutaxassislar chiqarila boshlagan⁵⁵.

Oʻzbekiston SSRda yetti yillik va oʻrta maktablarda tarix alohida fan sifatida qayta tiklangandan keyin malakali oʻqituvchi kadrlarga boʻlgan ehtiyoj yanada ortdi. Albatta, ikkita-uchta oliygoh respublikadagi barcha maktablarni tarixchi-oʻqituvchilar bilan taʼminlay olmas edi. Shuning uchun XX asr 30-yillarida Oʻzbekistonda qator yangi pedagogika va oʻqituvchilar institutlari ochildi. Pedagogika va oʻqituvchilar institutlari nafaqat respublika poytaxti Toshkentda, balki viloyat markazlarida ham tashkil etildi. Jumladan, Fargʻona (1930), Buxoro (1930), Qoʻqon (1931), Toshkent (1935), Nukus (1935), Andijon (1939) shaharlarida pedagogika va oʻqituvchilar institutlari faoliyat koʻrsata boshladi. Bu katta ijobiy ahamiyatga ega edi, chunki bunday taʼlim dargohlarining barpo etilishi viloyatlarda taʼlim sifatining, jumladan, tarix fani oʻqitilishining ham rivojlanishida qoʻyilgan muhim qadam boʻldi⁵⁶.

Fargʻona vodiysida tashkil etilgan ilk oliygoh Fargʻona davlat pedagogika instituti 1930-yil 1-mayda ochilib, dastlab unda ishchi yoshlar fakulteti hamda ijtimoiy-iqtisodiy va tabiiy-biologiya boʻlimlari mavjud boʻlgan. Ayrim fanlardan dars berish uchun Samarqand davlat universitetining professorlari B.Choʻponzoda (oʻzbek tili va adabiyoti), S.I.Lankovskiy (tarix) hamda dotsent I.M.Moʻminov (tarix va falsafa) taklif etilgan. 1933-yilda institutni 105 nafar mutaxassis bitirdi⁵⁷.

Uchinchi bobning “Tarix boʻyicha yangi darsliklar yaratish ishlari va fanning oʻqitish metodikasidagi oʻzgarishlar” deb nomlangan soʻnggi paragrafida “Tarix” fanidan darsliklar yaratish hamda maktablarda tarixni oʻqitish jarayonida qoʻllanilgan usullar masalasida soʻz yuritilgan. SSSR XKS va VKP (b) MK 1935-yilda qoʻshimcha ravishda boshlangʻich, notoʻliq oʻrta va oʻrta maktablar uchun katta miqdorda darslik kitoblar nashr etish va ularni sotuvga chiqarish haqida qaror qabul qildi⁵⁸.

⁵³ Холиқова Р.Е. Ўзбекистонда тарих фани ва таълимни ривожлантириш... – Б. 38.

⁵⁴ Холиқова Р.Е. Ўзбекистонда тарих фани ва таълимни ривожлантириш... – Б. 38.

⁵⁵ Arslonzoda R.A. Mutaxassislikka kirish (Oʻquv qoʻllanma). – Fargʻona: Classic, 2021. – B. 116-117.

⁵⁶ Arslonzoda R.A. Mutaxassislikka kirish.... – B. 116-117.

⁵⁷ Fargʻona davlat universiteti: tarix va yuksalish yillari. K. 1. Publitsistik nashr / Toʻplab nashrga tayyorlovchi A.Sharafiddinov. – Fargʻona: “Fargʻona” nashriyoti, 2015. – 296 b.

⁵⁸ Постановление СНК СССР и ЦК ВКП (б) “Об издании и продаже учебников для начальной, неполной средней и средней школы» 7 августа 1935 г. / КПСС в резолюциях и решениях съездов, конференций и пленумов ЦК. Изд. 9-е, доп. и испр. Том шестой. – Москва: Политиздат, 1985. – С. 255.

O‘zSSR Maorif xalq komissarligi 1937-yil 20-noyabrda “O‘rta maktablarning VIII-IX-X sinflarida 1937-yilning 1-dekabridan boshlab SSSR tarixini professor Shestakov tahriri ostida chiqqan darslikdan o‘qitishni joriy qilish haqida”gi buyruq chiqardi. Ushbu darslik o‘zbek tiliga ham tarjima qilindi. O‘zbekiston SSR boshlang‘ich maktablarida 1937/1938-o‘quv yilining ikkinchi yarmidan boshlab mazkur darslik bo‘yicha SSSR tarixini o‘qitish boshlandi⁵⁹.

1918-yilda RSFSR Maorif xalq komissarligi “Yagona mehnat maktabi” to‘g‘risidagi qarorni qabul qildi. Natijada, 1920-yildan boshlab maktablarda sinflar o‘rniga guruhlar va “jamoalar” (brigadalar) joriy qilindi⁶⁰. “Sinf–dars” tizimidan voz kechilgach, “Mehnat maktabi” “Dalton-plan”, o‘qitishning jamoa–laboratoriya shakli va loyiha metodi nomlari bilan taqdim etilgan o‘zgacha shaklli ta’lim amaliyotiga kirib keldi. Bu tizim maktablarda o‘quvchilarning tarix va ijtimoiy fanlarni yanada yaxshi o‘zlashtirishiga yordam beradi, deb hisoblangan. Aslida maktablarda bunday o‘qitish shakllariga o‘tilishi, didaktik maqsadlar bilan emas, mafkuraviy, siyosiy va ijtimoiy maqsadlarga – yosh avlodni “sodiq sovet fuqarosi” sifatida tarbiyalashga qaratilgan edi.

Laboratoriya-jamoa uslubida o‘quvchilar topshiriqlar, loyihalar va tadqiqotlarni o‘z xohishlariga ko‘ra emas, balki har doim jamoaviy ravishda bajargan. Bu bilan “kollektivizm” rivojlantirildi va bolani o‘zining emas, balki jamoaning manfaatlari va istaklariga qarab mo‘ljall olishga o‘rgatdi. Ayni yondashuvlar o‘quvchini sovet mafkurasi hukmron jamiyatda yashashga tayyorlagan.

Maorif sohasidagi o‘zgarishlar davrida tarix o‘qitishning “mehnat” usuli ham keng targ‘ib qilingan. Ushbu usulning asosini nemis pedagogi, faylasuf, psixolog va pedolog Vilgelm Avgust Lay ishlab chiqqan bo‘lib, u “harakat maktabi” deb atalgan. Biroq, G‘arb maktablarida “harakat maktabi” usulining shiori “bilimdan harakatga” bo‘lsa, sovet mehnat maktabida u aksincha – “harakatdan bilimga” yo‘naltirilgan⁶¹.

XX asrning 20-yillarida “Jamiyatshunoslik” fanida “loyiha- tadqiqot” usuli ham ancha keng tarqalgan edi. Ushbu usuldan ko‘zlangan maqsad o‘quvchilar o‘qituvchi yordamisiz yoki uning minimal ko‘magi bilan tarixiy bilimga ega bo‘lishi edi. Bu sovet pedagogikasidagi “faol o‘quvchi” konsepsiyasining amaliy ko‘rinishi bo‘lgan. “Loyiha-tadqiqot” usuli ko‘pincha haddan tashqari mustaqillikni talab qilarb edi. Bu esa turli yoshdagi o‘quvchilar uchun qiyinchilik keltirib chiqargan. Ular ko‘pincha o‘zlari uchun murakkab bo‘lgan savollarni hal qilishga majbur bo‘lgan. Ushbu holat ularda noto‘g‘ri xulosalarning shakllanishiga sabab bo‘lgan. O‘qituvchi tomonidan beriladigan izoh yoki ma’lumotlarning yetishmasligi esa o‘quvchilarning mavzu bo‘yicha yetarli bilimga ega bo‘lmasligiga olib kelgan.

XX asr 30-yillarining boshiga kelib Maorif xalq komissarligi tomonidan maktablardagi kompleks dasturlar ta’lim sifatining keskin pasayishiga olib kelganligi bilan bir qatorda, sinf-dars tizimidan voz kechilishini ham qoralangan.

⁵⁹ Языки обучения школ и национальности учащихся в школах УзССР на 15 октября 1937/1938 учебного года / История образования в архивных источниках. Том II... – С. 56.

⁶⁰ Бущик Л.П. Очерк развития школьного исторического образования в СССР... – С. 229.

⁶¹ Корнетов Г.Б. Школа действия немецкого педагога-реформатора Вильгельма Лая // Инновационные проекты и программы в образовании. – 2021. – № 5. – С. 21.

Ayni davrda tarix ta'limi kuchli g'oyaviy vositaga aylantirildi. Loyiha usullari bolalarda erkin fikrlash, mustaqil tanqidiy yondashuvni rag'batlantirar edi. Bu esa sovet mafkurasi uchun "xavfli" deb, - topildi. Siniy kurashning keskinlashuvi, qatag'on siyosatining kuchayishi ortida I.V.Stalin o'z hokimiyatini markazlashtirishga harakat qildi. Bu ta'limda, ayniqsa, "Tarix" fanining o'qitilishida juda muhim bo'lgan o'zgarish – tarixning o'quv dasturiga qaytarilishiga ham o'z ta'sirini ko'rsatgan⁶². Shuningdek, o'quvchilarda sodiqlik, tartib va iyerarxiyani kuchaytiruvchi sinf-dars tizimi ham yana qayta tiklandi. VKP (b) Markaziy Qo'mitasining 1931-yil 5-sentyabrdagi "Boshlang'ich va o'rta maktab to'g'risida"gi qarori loyiha ta'lim usullaridan voz kechilishiga va sinf-dars tizimiga qaytilishiga asos bo'ldi.

XULOSA

"O'zbekiston maktablarida tarix ta'lim tizimining vujudga kelishi (1918–1940 yillar)" mavzusini o'rganish natijasida quyidagi xulosalar shakllantirildi:

1. O'rta Osiyodagi eski diniy maktab va madrasalar konfessional xususiyatga ega bo'lib, tarixni ilmiy asosda o'rganish imkonini bermagan. Rossiya imperiyasi ta'lim muassasalarida tarix rus ta'lim tizimi bo'yicha o'qitilgan, biroq bunda ko'proq afsonalar va siyosatga e'tibor qaratilgan. Turkiston milliy ta'lim tizimida tarix fani XIX asr oxirida jadidlar tomonidan joriy etilgan yangi usuldagi maktablar orqali o'qitila boshlangan. Jadid rahbarlari tarix fanining jamiyat taraqqiyotidagi o'rni va ahamiyatini chuqur anglab, bu fanni o'quv dasturiga kiritishga intilganlar. Natijada milliy ta'lim tizimida tarix fanini o'qitish yo'lga qo'yildi.

2. 1923-yilga kelib tarix alohida fan sifatida o'qitilmay, jamiyatshunoslik fani tarkibiga qo'shib yuborildi. Bu sovet hukumatining siyosiy qarashlari bilan bog'liq edi. Keyinchalik maktab o'quvchilarining tarix fanidan o'zlashtirishi nihoyatda pasayib ketganligi, kerakli ko'nikmalarga ega bo'lmaganligi mazkur qarorning xato ekanligini isbotladi. XX asr 30-yillari boshlarida maktab ta'limida tarixni alohida fan sifatida o'qitish tizimi qayta tiklandi.

3. Tarix fanining maktab dasturlaridan olib tashlanishi va uning o'rniga jamiyatshunoslik kompleks dasturini joriy etish natijasida jiddiy kamchiliklar aniqlandi. Bulardan eng asosiysi fanlar o'rtasidagi tabiiy bog'lanishlar buzilganligidir. Natijada, fan asoslarini puxta o'zlashtirishga yetarli e'tibor berilmadi, o'quv vaqtidan unumli foydalanilmadi, zarur ko'nikmalarni shakllantirish ishlari olib borilmadi, o'quvchilar bilimida pala-partishlikka yo'l qo'yildi. Maktab o'quvchilari tarixdan tizimli bilim olish u yoqda tursin, hatto tarixiy jarayon haqida umumiy tasavvurga ham ega bo'lmadi.

4. Sovet maktablarida yosh avlodni kommunistik ruhda tarbiyalashda tarix fani muhim o'rin tutishi lozim edi, ammo marksist pedagoglar tarixni amaliy foydasiz sanab, uning ahamiyati pasaytirilgan. "Pragmatik pedagogika" nazariyasi ta'limni hayot bilan bog'lashi va tarixni alohida fan sifatida o'qitmaslikni targ'ib qilgan. Shuningdek, tarix darslarini jamiyatshunoslik kompleksi doirasida o'rganish va

⁶² Бушиц Л.П. Очерк развития школьного исторического образования в СССР... – С. 296.

o‘tmish voqealarini hozirgi dolzarb masalalar bilan bog‘lash zarurligi ta’kidlangan. Tarix o‘qitishda yangi usullar, jumladan, “laboratoriya-jamoa”, “loyiha-tadqiqot” va “mehnat” usullari qo‘llanilib, o‘quvchilarni faollashtirishga yo‘naltirilgan. Lekin bu usullar o‘quvchilarning fan bo‘yicha bilimlarining yanada pasayishiga olib kelganligi tufayli XX asrning 30-yillarida ulardan butunlay voz kechildi.

5. Sovet maktablarida tarix ta’lim tizimini shakllantirish kadrlar va ularning salohiyatiga bog‘liq bo‘lib, malakali o‘qituvchilar yetishmasligi muammosi dolzarb ahamiyatga ega edi. 1918–1925-yillarda Toshkentda universitetlar va pedagogika texnikumlari tashkil etilib, ishchi va dehqonlardan o‘qituvchi kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi. Shuningdek, turkistonlik yoshlar Turkiya va Germaniya oliy o‘quv yurtlariga yuborilib, pedagogik tayyorgarlikdan o‘tadilar. Milliy o‘qituvchi kadrlar tayyorlashda pedagogika institutlari tarkibidagi tarix va jamiyatshunoslik fakultetlari va qisqa muddatli pedagogik kurslar ham muhim rol o‘ynadi. Natijada, 1918–1924-yillarda Turkiston ASSRda tarix va jamiyatshunoslik fanlarini o‘qitish bo‘yicha dastlabki o‘quv dasturlari yaratilib, o‘qituvchi kadrlar tayyorlash yo‘lga qo‘yildi.

6. 1931-yildan 1940-yilgacha O‘zbekiston maktablarida o‘quv va tarbiyaviy ishlarni tubdan qayta qurish jarayoni amalga oshirildi. Bu davrda umumiy boshlang‘ich ta’lim joriy etilib, shaharlar va ishchilar shaharchalarida yetti yillik ta’limga o‘tish masalasi qo‘yildi. Tarix ta’lim tizimi ikki bosqichga bo‘lingan, jumladan, birinchi bosqichda (1931–1936) boshlang‘ich va o‘rta tarix ta’lim tizimi ishlab chiqildi. Ikkinchi bosqichda (1937–1940) esa fan bo‘yicha darsliklar yaratildi. Maktablarda tarix o‘qitishni yuksaltirish uchun yuqori malakali o‘quvchilar tayyorlashga intilish kuchaydi va pedagogika institutlarida tarix fakultetlari tashkil etildi.

7. Tarix darslarida faktlarni bilish o‘rniga mavhum xulosalarni yod olishga chek qo‘yildi. Lekin o‘qitish mazmunini o‘zgartirish va tarixni xolis yoritish o‘rniga, partiya mafkurasini targ‘ib qilish, shaxsga sig‘inish g‘oyalarini singdirish tarixni kengroq va aslicha o‘rganishga imkon bermadi. Darsliklarda SSSR tarixiga oid ma’lumotlar ko‘pligi sababli o‘quvchilar tarixni cheklangan holda o‘rganishga majbur bo‘ldi. Bu holat ta’lim va tarbiyaning boshqa vazifalarini chekkaga surib qo‘ydi. O‘qituvchilar aniq ilmiy xulosalarga tayanish o‘rniga dogmatik tarzda ishlashga intildilar. Natijada, O‘zbekistonda tarixni o‘qitishda faqatgina “SSSRga sodiq kishi”ni tarbiyalovchi tizim yuzaga keldi. Tarixni o‘rganish esa siyosiy mafkurani yoyishgagina xolis xizmat qildi.

Tadqiqot ilmiy xulosalari asosida quyidagi **taklif va tavsiyalar** ishlab chiqildi:

1. Tarix ta’lim yo‘nalishi bitiruvchilarining aksariyati pedagogik faoliyat bilan shug‘ullanishini inobatga olib, bakalavriat bosqichining “O‘zbekiston tarixi” va “Jahon tarixi” fanlaridan o‘quv dasturlarining umumiy o‘rta ta’lim maktablaridagi ayni fanlar dasturi bilan muvofiqligini qayta ko‘rib chiqish zarur;

2. Tarix fanidan yangi avlod darsliklarini yaratishda xorijiy tajribadan foydalanish, bunda ilg‘or davlatlarning Vatan tarixi va jahon tarixini yoritishga yondashuvlarini o‘rganish maqsadga muvofiq;

3. Respublikada tarix fanini o‘qitishda eng samarali usullar va tajriba almashuvini yo‘lga qo‘yish, soha mutaxassislari integratsiyasini kuchaytirish

maqsadida umumta'lim maktablari, akademik litseylar, oliy ta'lim muassasalari tarixchilari tomonidan mediakontent ulashib borish imkonini beruvchi yagona elektron platformani ishga tushirish;

4. Tarix fanidan ilg'or pedagog kadrlarning tajribasini muntazam ravishda ommalashtirib borish maqsadida O'zbekiston milliy teleradiokompaniyasining "O'zbekiston tarixi" telekanalida "Uslubchi-tarixchi" yoki "Uslubiy tajriba" kabi nomda yangi turkum ko'rsatuvlarni tashkil etish zarur.

**НАУЧНЫЙ СОВЕТ ПО ПРИСУЖДЕНИЮ
УЧЁНЫХ СТЕПЕНЕЙ PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 ПРИ
ФЕРГАНСКОМ ГОСУДАРСТВЕННОМ УНИВЕРСИТЕТЕ**

ФЕРГАНСКИЙ ГОСУДАРСТВЕННЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

КОДИРОВА РАЪНОХОН МАМИРЖОНОВНА

**СТАНОВЛЕНИЕ СИСТЕМЫ ИСТОРИЧЕСКОГО ОБРАЗОВАНИЯ В
ШКОЛАХ УЗБЕКИСТАНА (1918–1940 гг.)**

07.00.01 – История Узбекистана

**АВТОРЕФЕРАТ ДИССЕРТАЦИИ
ДОКТОРА ФИЛОСОФИИ (PHD) ПО ИСТОРИЧЕСКИМ НАУКАМ**

Тема диссертации доктора философии (PhD) зарегистрирована в Высшей аттестационной комиссии при Министерстве высшего образования, науки и инноваций Республики Узбекистан за номером B2022.2.PhD/Tar1100.

Диссертация выполнена в Ферганском государственном университете.

Автореферат диссертации размещен на трех языках (узбекский, русский, английский (резюме)) на веб-странице Научного совета (www.fdu.uz) и на Информационно-образовательном портале «ZiyoNet» (www.ziynet.uz).

Научный руководитель:

Арслонзода Рахматжон Арслонбоевич
кандидат исторических наук, доцент

Научный консультант:

Шамсиева Махфузахон Хужа кизи
доктор философии по историческим наукам,
доцент

Официальные оппоненты:

Хошимов Сойибжон Абдуразакович
доктор исторических наук, профессор

Нуридинов Турдали Камбарович
доктор философии по историческим наукам,
доцент

Ведущая организация:

**Наманганский государственный
Университет**

Защита диссертации состоится «27» 12 2025 г. в 11:00 часов на заседании Научного совета по присуждению ученых степеней PhD.03/31.03.2021.Tar.05.05 при Ферганском государственном университете (Адрес: город Фергана, улица Мураббийлар, Ферганский государственный университет, Факультет истории, 2-этаж, зал совещаний. Тел.: (99873) 244-44-02; факс: (99873) 244-44-93; e-mail: fardu_info@mail.uz, Ферганский государственный университет).

С диссертацией можно ознакомиться в Информационно-ресурсном центре Ферганского государственного университета (зарегистрирована за №646). (Адрес: 150100, город Фергана, улица Мураббийлар, дом 19. Здание ИРЦ). Тел.: (99873) 244-44-94).

Автореферат диссертации разослан «12» 12 2025 года.
(реестр протокола рассылки № 51 от «12» 12 2025 года).



Б.А. Усмонов
Председатель Научного совета по
присуждению ученых степеней, д.и.н.,
профессор

Н.О. Алимова
Ученый секретарь Научного совета по
присуждению ученых степеней,
д.ф.и.н., доцент

М.Г. Абдуллаев
Председатель Научного семинара при
Научном совете по присуждению
ученых степеней, д.и.н., профессор

ВВЕДЕНИЕ (аннотация диссертации доктора философии (PhD))

Актуальность и востребованность темы диссертации. В условиях происходящих во всем мире процессов глобализации существенно возросли значение и роль системы образования в жизни государства и общества. Всё больше внимания уделяется кооперации государственного и общественного управления системой образования, его содержанию и сущности, методам и организационным формам. Также возникает необходимость создания условий для непрерывности и последовательности образования, обеспечения его развития и подхода к выбору образовательных программ. В частности, всё большую значимость приобретает формирование теоретических знаний, навыков, практических умений, повышение кадрового потенциала в системе образования.

В ряде ведущих высших учебных заведений и научно-исследовательских институтов мира углубленно изучаются такие вопросы, как сущность, виды и процессы совершенствования образования, его значение в развитии общества и история его развития. В частности, ICHRE при Академии Лондонского университета в Великобритании, Университет Джорджа Мейсона в США, Центр исследований исторического образования (History Education Research) при Эразмуском университете в Нидерландах и педагогические университеты Швейцарии являются лидерами в изучении вопросов, связанных с историей образования и школьного обучения, методикой преподавания¹. Признание на сегодняшний день качества, охвата, этапов, форм системы образования одним из приоритетных направлений в политике многих стран создает необходимость проведения масштабных исследований в этой области. Поэтому важное значение имеет более глубокое изучение системы образования, считающейся основой социальной сферы, и ее историю, исследование ее в разрезе периодов, территорий, регионов и проблем.

В годы независимости в Узбекистане система образования, обеспечение содержания, качества и правовой базы образовательных дисциплин, повышение кадрового потенциала и создание всех условий в соответствующих учреждениях стало одним из важных направлений государственной политики. В частности, широкомасштабные реформы, осуществляемые в Республике Узбекистан в этом направлении, способствуют организации всех ступеней системы образования на основе современных требований. Как отметил Ш. Мирзиёев, «Есть в мире одна истина, не требующая доказательств: развитие любой страны зависит от здорового и образованного поколения. Поэтому необходимо и обязательно создавать все условия для воспитания здоровой, образованной, нравственно развитой, патриотичной молодежи на пути к построению нового Узбекистана»². В связи с этим изучение изменений в системе образования и их сущности, исследование его исторических корней становится всё более актуальным в жизни общества и государства.

¹ www.ucl.ac.uk; www.gmu.edu; www.eur.n

² <https://president.uz/oz/lists/view> (15 мая 2025 года)

Данная диссертация в определенной мере послужит реализации задач, обозначенных в Указах Президента Республики Узбекистан №УП-6097 от 29 октября 2020 года «Об утверждении Концепции развития науки до 2030 года», №УП-60 от 28 января 2022 года «О стратегии развития Нового Узбекистана на 2022–2026 годы», №УП-134 от 11 мая 2022 года «Об утверждении Национальной программы развития школьного образования на 2022–2026 годы», Постановлениях №ПП-482 от 11 мая 2022 года «О дополнительных мерах по развитию народного образования» и №ПП-128 от 20 апреля 2023 года «О создании Республиканского научно-методического центра развития образования» и других нормативно-правовых документах, относящихся к этой сфере.

Соответствие исследования приоритетным направлениям развития науки и технологий республики. Данное исследование соответствует приоритетному направлению развития науки и технологий республики I «Формирование системы инновационных идей и путей их реализации в социальном, правовом, экономическом, культурном, духовном и образовательном развитии информационного общества и демократического государства».

Степень изученности проблемы. Изученную в рамках темы исследования литературу можно разделить на три группы по периодическому, географическому и идеологическому принципам. В частности, первую группу составляет литература, созданная в советское время, вторую – научные исследования, проведенные в Узбекистане в годы независимости, а третью – произведения зарубежных авторов.

Историография темы подробно анализируется в первом параграфе I главы диссертации.

Взаимосвязанность темы исследования с планом научно-исследовательских работ высшего учебного заведения, в котором была выполнена диссертация. Диссертация выполнена в рамках плана научно-исследовательских работ Ферганского государственного университета по теме «Актуальные проблемы истории Узбекистана».

Целью исследования является освещение истории становления преподавания истории в школах Узбекистана с 1918 до 1940 годов, подготовки педагогов и специалистов историков, создания учебников по предмету история в этот период.

Задачи исследования:

провести научный анализ литературы, посвященной преподаванию истории в Туркестанской АССР и Узбекской ССР в 1918–1940 гг. и выявить проблемы, требующие решения в рамках темы;

комплексно проанализировать источники по теме, раскрыть их значение в изучении выбранной проблемы;

осветить положение преподавания истории в образовательных учреждениях Туркестана до установления советского строя;

показать организацию преподавания истории в школах советского образца и тенденции его развития;

изучить учебные программы предметов «История» и «Обществоведение», преподававшихся в учебных заведениях Узбекской ССР и проанализировать их содержание;

раскрыть вопрос создания школьных учебников по истории, направленных на укрепление советского строя;

сделать заключительные выводы на основе результатов исследования, а также разработать предложения и рекомендации, имеющие научное и практическое значение, по вопросу возникновения системы исторического образования в школах Туркестанской АССР и Узбекской ССР.

Объектом исследования является преподавание истории в школах Узбекской ССР в 1918–1940 годах.

Предмет исследования составляют система преподавания истории в школах Туркестанской АССР и Узбекской ССР, учебные программы по истории и обществоведению, подготовка кадров по этим предметам.

Методы исследования. В диссертации, основываясь на принципы историчности и объективности, использованы такие методы научного исследования, как проблемно-хронологический, количественный, сравнительный анализ и устная история.

Научная новизна исследования заключается в следующем:

научно обосновано, что преподавание истории в узбекских школах в 1918–1940 годах осуществлялось в три этапа: первый этап – 1918–1924 годы (чередование преподавания предмета истории как отдельного предмета или в составе комплекса предметов), второй этап – 1924–1931 годы (преподавание предмета история в составе комплекса предметов по обществоведению) и третий этап – 1932–1940 годы (установление преподавания истории как самостоятельного предмета);

